

CXXXI

Hikoyat

"Bor edi devonai oliy sifot,  
Xalq Majnun Alhaq aytib anga ot.  
Chunki haq yodi anga mahbub edi,  
Tunu kun bu yod ila mag'lub edi.  
So'z desa, haqqa qilur erdi xitob,  
Haq tilidin-o'q berur erdi javob.  
Bir bahor ayyomi azm aylab safar,  
Uzga baytullohni aylab maqar.  
Chun riyozatdin tani erdi nahif,  
Minmish erdi markabi ul ham zaif.  
Tun qorong'u .bo'ldiyu tutti yog'in,  
Ko'rdi Majnun sa'b ul yo'l bormog'in.  
Bir buzug' ko'rdiy u sokin bo'ldi ul,  
Dedi:- "Ey tengrim, eshakdin voqif o'!"  
Kirdi markabni qo'yib vayronag'a,  
Uyqu g'olib bo'ldi ul devonag'a.  
Yotti bosh ostig'a qo'yub bir kesak,  
Ul buzug'din toshqari qoldi zshak.  
cho'zi bsrq'sch uyqug'a abri bahor,  
Tezlik qildi yog'ung'a oshkor.  
To'kti vayron ichra haryondin su(v)ni,  
Telba boshidin uchurdi uyquni.  
Qo'ptiyu o'lturdi turg'uncha yog'in,  
Chun yog'in turdi bilib borur chog'in.  
Chiqti markabni qilurga teztak,  
Yo'q edi vayrona toshinda eshak.  
Qo'ydi yuz Majnung'a behad iztirob,  
Tengriga qildi g'azab birla xitob:  
"Kim, sanga markabki topshurdum bu da  
Yaxshi asroding, karam qilding, karam!  
El sening mehmonlig'ingg'a bormasa,  
Markabin vodiy sari boshqarmasa,  
Bo'lmag'ay erdi bu beparvolig'ing,  
G'aflat ichra mahz istig'nolig'ing.  
Asramog'din markabim or aylading,  
Tiyra tunda nopadidor aylading!"  
Kungronib haryon urar erdi qadam,  
G'oyibin istarg'a majnuni dijam.  
Kim choqildi bir ajab raxshanda barq,  
Ayladi olamni anvorida g'arq.  
Markabin ko'rdiki o'tloydur yurub,  
Xoru xasqa har taraf og'zin urub.  
Ko'rgach oni telba bo'ldi shodmon,  
Mindi dog'i yo'lg'a tushti ul zamon.  
Tundlug'larni boshidin toshladi,  
Lutflar birla navozish boshladi:  
"K-ey mening jismim aro jonim xudo,  
Balki yuz jonim sanga bo'lsun fido!  
Garchi uldam markabimiga boqmading,  
G'oyib aylab bo'ynig'a ip toqmading.  
Manga yuzlandi ajab oshuftaliq,  
Qahrdin qildim sanga oluftaliq.  
Chun eshakni topshurub erdim sanga,  
Oni topshurmoq kerak erding manga.  
Asramoqda chunki taqsir aylading,  
Tund ko'rgach meni, tadbir aylading.  
Chora aylab chaqmog'ingni choqibon,  
Ko'z yorutur mash'alingni yoqibon.  
Ko'zuma oni namudor aylading,  
Dar mahal bu lutf izhor aylading.  
Tundluqqa gyarchi men erdim muhiq,  
Sen ham ermishsen harifi bas mudiq,  
Kim bu diqqat aylabon zohir manga,  
G'oyibimni aylading hozir manga.  
Degonimdin bemador etting meni,  
Qilg'onimdin sharmisor etting meni.

Sen nekim qilding - unuttum men tamom,  
Sen ham o'tkonni unut, lutf ayla om.  
Men unuttum aylabon zohir vifoq,  
Sen dog'i oni unutsang yaxshiroq.  
Men seni deb qilmog'umdur chun xijil,  
Sen meni ham qilma oytib munfail.  
Men seni bu qissada tuttum maof,  
Sen dog'i ko'nglungni mendin ayla sofp→  
O'zini hardam sitoyishlar" qilib,  
Haqni ham mundoq navozishlar qilib,  
Telba rozi garchi noma'qul edi,  
Chun muhabbatdin edi maqbul edi.  
Bo'lsa har majnun bu yanglig' roz anga,  
Ham yetar gustoxlig' ham noz anga.  
Tengriga chunki bu el mahbub erur,  
Har ne mahbub aylasa marg'ub erur".

CXXXII

Yana bir qushning Hudhuddin savoli  
Rna bir soyil dedi: "K-ey rohnvard,  
Gayrdin men bo'lmisham ozodu fard.  
Uzni aylabmen xayoli birla xush,  
Bo'lg'oli bir kun visoli birla xush.  
Men chu ondin oyru ermon bir nafas,  
Oni istab ne safar aylay havas?"

CXXXIII

Javob

Dedi Hudhud: "K-ey so'zung da'voga xos,  
Toimogon ma'ni sari hech ixtisos.  
Har kishi haddi emas bu nav' lof,  
Kim o'zi vasfiga degay bir gazof.  
Sen muni ko'rkim chekib jon oyu yil,  
Uz-o'zungni vasf etarsen muttasil.  
Uzni gayridinki dersen fardbu,  
Olida maqbul ekin mardudmu.  
Sen demoqdin rost kelmas bu maqol,  
To ne nav' erkin oning ollinda hol.  
Sen bu da'vodin urareen xud nafas,  
To anga ne nav' ekin bu multamas.  
Har ne sen dereen anga yo'q e'tibor,  
Mo"tabardur ne ul etsa oshkor.  
Sen demoqdin ish kifoyat bo'lmag'ay,  
To qabul ondin inoyat bo'lmag'ay.  
Demagan xushroq yana bu nav' so'z,  
Gikkan avlodur oning lutfig'a ko'z",

CXXXIV

Hikoyat

"Shayx Bistomiy, amini ganji roz,  
Ahli ma'ni taxti uzra sarfaro.  
Chunki bu dorulfanodin qildi azm,  
Ravzai dorilbaqog'a tuzdi bazm.  
Bir kun oni tushta ko'rdi bir murid,  
Dedi: "Ey ichgon may ahli min mazid!  
Bizga holingdin ayon etgil xabar,  
Kim sanga ne qildi hayyi dodgar?  
Furqatingda chun base ko'rduk alam,  
Toki itmiynon bo'lg'ay bizga ham".  
Murshidi komil dedikim: "Ul zamon -  
Kim, lahad qa'ri manga bo'ldi makon.  
Ul malaklarkim erur ahli savol,  
Bo'ldilar hozir qilurg'a qilu qol!"  
Dedilarkim: "Kirdigoring kim durur,  
Xoliq parvardigoring kim durur?"  
Men dedim: "Bu so'zni mendin so'rmangiz,  
Gar javobi demasam yozg'urmangiz.  
Aylangiz borib savol andinki, ul -  
Bandalig' sori manga berurmu yo'l.  
Qullug'umg'a gar qabul o'lsa xitob,  
Ul xitob-o'q sizga kofiydur javob.

Bandaye onglang meni dargohida,  
Masnadi iqbol izzu johida.  
Gar qabul iqbolidin navmidmen,  
Hajrida avvorai jovidmen.  
Meni rad ahlidin ul soat biling,  
Har ne iyetar ko'nglungiz ul dam qiling,  
Chun bu yanglig' toptilar mendin javob,  
Keldi ul soat xitobi mustatob..

"K-ey savol ahli, bukim mas'uldur  
Bandai mustahsanu maqbuldur.  
Bo'lmayin ravshan oning nurig'a ko'z,  
Uz demoqlik birla kelmas rost so'z".

CXXXV

Yana bir qushning savoli  
Yana bir soyil dedikim: "Ey rafiq,  
Bo'lmisham bahri kamol ichra g'ariq.  
Ham kamoli nafs bo'lmish hosilim,  
Ondin o'lmish vosilim, komi dilim.  
Bu murodim munda chun hosildurur,  
Yo'l azobin tortmoq mushkildurur".

CXXXVI

Javob

Dedi Hudhud: "K-ey murodingdin nufur,  
Ko'nglinga g'aflat solib jahlu g'urur.

Uz xayolingdin qilib mag'rurluq,  
Ishning aslidin topib mahjurluq.  
Bu xayoling keldi behosil xayol,  
Balki boshtin to oyoq botil xayol.

Noqis uldurkim, o'zin komil degay,  
Komil ulkim nuqsin isbot aylagay.

Uz kamolidin demas ahli kamol,  
Ahli nuqson ichradur bu qilu qol.  
Senki nuqson ichra komilsen base,  
Olim oytib o'zni, johilsen base.

Uz kamolidin demaktur mahzi jahl,  
Jahldin so'z oytqay kim bo'lsa ahl.

Kim o'zin komil ko'rar noqisdur ul,  
Nuqs bermaydur kamoli sori yo'l.

Mehr kun tush o'zni ko'rg'och barkamol,  
Anga yuzlandi hamul soat zavol.

Bovujudikim kamoli bor edi,  
Chun oni ko'rdi, zavoli bor edi.

Gar o'zin komil degay noqisvashe,  
Xushluq o'zga sobit etgay noxushi.

Oni isloh aylamak dushvordur,  
Kim binosi kibr ila pindordur.

Bu kamolikingim, qilibtursen gumon,  
Mahzi nuqson bil oni, ey notavon".

CXXXVII

Hikoyat

Shayx Abu Bakri Nishoburiyki, ul -  
Mulki ma'ni sori topib erdi yo'l,

Chiqti bir kun mulki Nishoburdin,  
Sayr uchun ul xittai ma'murdin.

Shayxlig' oyini g'oyatdin fuzun,  
Xodimu muxlis nihoyatdin fuzun.

Ham mahofa, ham rikobu ham alam,  
Javq-javq ashobu afrodu xadam.

Shayx chun nazzora qildi bu shukuh,  
Keynida-olida hur yanglig' guruh.

Bir xayole ko'nglig'a tushti mahol,  
Kim oni mag'lub qildi ul xayol.

Bu mahalda bir eshak aylab fig'on,  
Chiqdi ondin bir biyik yel nogahon.

Shayxqa bu ramzdin vaqt o'ldi xush,  
Vajdu raqs aylab yiqilib qildi g'ash.

Chun anga bu nav' hol o'ldi padid,  
Qildilar inkor ashobu murid.

Bartaraf bo'lg'on zamon ul olami,  
Aylabon gustoxlig' bir mahrami.  
Kayfiyat so'rdiki ne hol erdi bu,  
Shayx oytta: "K-ey rafiqi rozjo".  
Chun nazar soldimki, xalq aylab hujum,  
Tobe'imdurlar bu ishdin nafsi shum.  
Ko'ngluma soldiki irshod ahlidin,  
Tolibu solikka imdod ahlidin.  
Nyo Junaydu Shibliyu ne Boyazid,  
Ne Ubaydu Nuriyu ne Bu Said.  
Qaysi bir topib edi erkin bu jo,  
Faqr oyinida bu xaylu sipoh!  
Nafs chun ko'nglumga soldi bo'yla tob,  
Bu mahalda ul eshak berdi javob.  
Chun javobim toptim andoqkim kerak,  
Boisi bu vajdim o'ldi ul eshak.  
Shayxkim, aylab eshak faryod anga,  
Bo'yla yesa aylagay irshod anga.  
Joy ul bo'lg'ayki, aylab vajdu hol,  
Boshidin yeldek chiqorg'ay ul xayol.  
O'yla insof ahlidik kelgay bu ish,  
Kimki ul munsifdurur - bilgay bu vgj,  
Yo'qsa har mag'rur, duni bulhavas,  
Bu biyik davlatqa toimas dastras".

CXXXVIII

Yana bir qushning savoli  
Yana bir soyil dedi: "K-ey muhtaram,  
Bu mahal yo'lg'a qachon qo'ysam qadam.  
O'zni ne mashg'ulluqtin shod etay?  
Etsa g'am, o'zni ne nav' ozod etay?  
Ne qilaykim ko'ng'luma yetkay surur  
Kim manga ondin dame yetkay huzur?"

CXXXIX

Javob  
Dedi Hudhud: "Uzni gar shod istasang,  
Har sifat qayg'udin ozod istasang.  
Uzni oning yodig'a mu'tod qil,  
Shodlig' istarsen - oni yod qil.  
Shodlig'kim, ermas oning yodidin,  
Bo'lmag'on xushroq xirad irshodidin.  
Ondin oyru ayshdin g'am yaxshiroq,  
Surdin yuz qatla motam yaxshiroq.  
G'amki ondin bo'lsa, bilgil shodlig',  
Har baliyyat qaydidin ozodlig'".

CXL

Hikoyat  
"Xoja Abdulloh Ansoriyki, aql -  
Aylay olmas ming' ishidin birni naql.  
Dedikim:- "Uldur ko'ngulning xushligi,  
Faqr yo'linda kiromivashligi -  
Kim ko'ngulda ondin o'zga bo'lmag'ay,  
Edida jonondin o'zga.bo'lmag'ay.  
Har ko'ngul mundoqdur b'ni bil ko'ngul, .  
Yo'qsa bahru kon esa, ondin to'ngul.  
Ko'ngul uldurkim, anga maskandurur,  
yo'qsa gulshan bo'lsakim, gulxandurur",

CXLI

Yana bir qushning savoli  
Yana bir soyil dedi: "K-ey baxtiyor,  
Chun oning ishqini qildim ixtiyor.  
Nogahon vasliga bo'lsam sarfaroq,  
Ne tilay ondin qilib zohir niyoz?  
Ondin istar nimani avval bilay,  
Vasliga yetgan zamon ondin tilay!"

CXLII

Javob  
Dedi Hudhud: "K-ey shioring xomliq,  
Hush vodisinda beoromliq.

Chun sanga ul maqsadu maqsud erur,  
Ondin o'zga boru yo'q nobud erur.  
Chun muyassar bo'ldi matlubung sening,  
Kirdi og'ushungga mahbubung sening.  
To yiroqsan - ko'nglunga uldur havas,  
Joningga yo'q ondin o'zga multamas.  
Emdikim topting, qilib qat'i firoq,  
Istamak ne bo'lg'ay ondin yaxshiroq!  
Uldurur chun tan bila jondin murod,  
Ondin o'zga ne bo'lur ondin murod!  
Topqoch oning, g'ayrdin ko'nglungni uz,  
Boru yo'qungni oning ishqida tuz".

CXLIII

Hikoyat

"Bu Said ul g'arqi daryoi vusul -  
Kim oning vasfida ojizdur uqul.  
Ulki zotiga laqab Xarroz edi,  
Tunu kun matlub ila hamroz edi.  
Makkada bir kun duo vaqtida xayl  
Qildilar haqdin murod istarga mayl.  
Ul xaloyiq avliyulloh edi,  
Barcha haq asroridin ogoh edi.  
Barchasi taqvovu toot aylabon,  
Haqni istarga munojot aylabon.  
Yuzni surtub barcha baytullohga,  
Oshnolig' istab ul dargohga.  
Lek ul sirri haqoyiq mahzani,  
Vasl bog'i gullarining gulshani.  
Ul talab ahli aro xomush edi,  
Ko'ngli vahdat jomidin behush edi.  
El duo qilg'onda nogoh solsa ko'z,  
Og'ziga gohi kelur erdi bu so'z -  
Kim: "Ilohiy, har ne xalq aylar talab,  
Men topibmen chekmayin ranju taab.  
Senki, el matlubisen - men toimisham,  
Istamakdin lojaram ko'z yoimisham.  
Sendin oyru chun emasmen bir nafas,  
Lag'v erur topqonni qilmog'lik havas.  
Men chu vasling birla toimishmen kushod,  
Bu talab ahlig'a ham bergil murod".

CXLIV

Yana bir qushning savoli

Yana bir soyil dedi: "K-ey ilmkeshe,  
Bu safarkim ko'nglumizni qildi resh.  
Qat' o'lub shah bazmiga bo'lsak anis,  
Tuhfaye vojibdurur behad nafis.  
Shahni ko'rmak tuhfa maqbul ila,  
Bizni onligt ogah et ma'qul ila".

CXLV

Javob

Dedi Hudhud: "K-ey savoling xub erur,  
Tuhfakim shoh olida marg'ub erur.  
Bir nima topqilki, noyob o'lg'ay ul,  
Yo'qki, la'lu durri serob o'lg'ay ul.  
Bordur ul maxzanda naqdi behisob,  
Durru gavharga xud onda ne hisob.  
Ul maloyik toatu taqvosidur,  
Pokravlarning sharif aifosidur.  
Zohid ahlidin ibodat onda ko'p,  
Javhari taqvoyu toat onda ko'p.  
Anbiyodin ham riyozat beaded,  
Avliyodin ham ibodat beaded.  
Harnekim ondin sharif o'lmas g'umon,  
Ul hamondur ondau tufroq hamon.  
Lek anda tuhfa so'zu dard erur,  
Bir asarlig' ohi g'amparvard erur.  
Borgohi izzu istig'nodur ul,  
Yuz tuman ming arshdin a'lodur ul.

Onda ko'ptur izzu istig'nou noz,  
Ulki yo'qtur ul erur ajzu niyoz.  
Sen o'zung birla niB§zu dard elt,  
Jismi zoru joni g'amparvard elt -  
Kim bu tuhfa yo'qtur ul dargohda,  
Ne tilar ajzu zabunlug' shohda.  
Onda yetkur so'z ila dardu fano,  
Istar o'lsang o'zni qilmoq oshno".

CXLVI

Hikoyat

"Shahriyore bor edi shahlarg'a shoh,  
Olam ahli boshida zilli iloh.  
Toji mehru onda kavkabdin guhar,  
Mulki Xovar haddidin to Boxtar.  
Bor edi bir o'g'likim, charxi kuhun,  
Ko'rmamish erdi oningdek sarvbun.  
Husn avji uzra tobon axtar ul,  
Lutf durji ichra raxshon gavhar ul.  
Ham sabohat shomida sham'i tiroz,  
Ham malohat gulshanida sarvi noz.  
Shoh ani asrab nihoniy qasr aro,  
Husnidin o't tushmasun deb asr aro.  
Dahr aro ofat tusharni chog'labon,  
Otlanib tushmak yo'lini bog'labon.  
Ul qilib gulshan harimida maqom,  
Bog' aro tovsudek aylab xirom.  
Shah chu chiqmoqdin anga mone' bo'lub,  
Ul chamanda aysh ila qone' bo'lub.  
Nogahon chekti ajal jomini shoh,  
Taxtni shahzoda qildi jilvagoh.  
Xutbai davlat o'quldi zotiga,  
Sikkai rif'at so'quldi otiga.  
Otlanib bir kun tamosho qilg'ali,  
Ko'ngli mulki sayridin ochilg'ali,  
Kirdi ofat solg'ali maydon aro,  
Soldi gardunsayrini javlon aro.  
Ot chopib maydonda chavgon o'ynadi,  
Xalq boshin go'y etib jon o'ynadi.  
Qaysi jonibkim, takovar surdi tez  
Shahru mulk ahliga soldo rustaxez.  
Ko'rgan el devonayu zor o'ldilar,  
Ishq domig'a giriftor o'ldilar.  
Ofate solib ulusqa bas azim,  
Endi gulshan sori andoqkim nasim.  
Shahr xalqi "yo rab"u g'avg'o chekib,  
Ishqidin faryodu vovaylo chekib.  
Qolmayin oni erishtilar bori,  
Qasru bog'iga yetishtilar bori.  
Shohi zolim aylabon mulkin xarob,  
Tushtiyu qildi xaloyiqqa itob -  
Kim: "Bu g'avg'o ahlini haryon surung,  
Ketmaganlarni jazog'a yetkurung!"  
Necha surdilar - xaloyiq ketmadi,  
Sa'yu ko'shish onda ko'p sud etmadi.  
Shahr xalqi sarbasar majnun bo'lub,  
Balki majnundin dog'i afzun bo'lub,  
Tunu kun oshuftavu devonavor,  
Tuttilar shah bog'i davrinda qaror.  
Shayxu shobu rindu zohid xosu om -  
Qildilar ishqu junun ko'yin maqom.  
Shah chu elning sa'b ko'rdi holatin,  
G'olib o'z holiga dog'i hayratin.  
Ko'rdi bu g'avg'onikim - poyoni yo'q,  
Chora qilmog'lik anga imkoni yo'q.  
Ul xaloyiq sori payg'om ayladi,  
Bir kishidin bo'yla e'lom ayladi:  
"Kim, bularkim ishqima mag'lub erur,  
Har biri bir shevag'a mansub erur.

Har kim o'z fannida qilsun ehtimom,  
Hirfasidin aylasun bir ish tamom.  
Bori om o'lg'onda hozir aylasun,  
Har kim o'z fazlini zohir aylasun.  
Ko'ngluma xush kelsa harkimning ishi,  
Ollima bo'lsun mulozim ul kishi.  
Oni o'z bazmim aro damsoz etay,  
Suhbatimda hamdamu hamroz etay.  
Dilpisandim bo'lmasa bo'ynin uray,  
Ko'p uqubat birla oni o'lturay".  
Bo'yla hukm etti chu shohi zulmfan,  
Tushti ushshoq olida behad mihan.  
El bo'lub bu va'dag'a umidvor,  
Ishlari keynicha tuttilar qaror.  
Kecha-kunduz say' etib ul sarbasar,  
Ahli fazlu ilmu har ahli hunar,  
Barcha ishtin o'zni ma'zul ettilar,  
Shah buyurg'on ishga mashg'ul ettilar.  
Bordi olim nusxa tasnif etgali,  
Ketti mutrib savt ta'lif etkali.  
Shoir etti madhgustarlik ayon,  
Kim anga qilg'oy nazar shohi zamon.  
Surdi munshi vasfi uzra xomani,  
Kim pisand etkaymu shoh ul nomani.  
Zargar o'ltirdi ayon aylab hunar,  
Kim yasagay shohg'a loyiq kamar.  
Jomabof omoda qildi korgoh,  
Qilg'ali zarbaft oni kiymakka shoh.  
Oshkoro ayladi najjor taxt,  
To'xtagoy deb onda shohi nekbaxt.  
Ayladi qavvos o'zin san'atqa band,  
Shohga tushkaymu deb ul dilpisand.  
Uqchi aylab o'zni mehnatqa asir,  
Kim bu shoyad shahg'a bo'lgay dilpazir.  
Hosilo ul shahr elidin xosu om,  
Uz ishiga har bir aylab ehtimom,  
Kim bu shoyad shohg'a tushgay qabul,  
To murodiga oning bo'lg'ay husul,  
Garchi kelsa o'llig'a ranju taab,  
Bo'lg'ay ul komu murodig'a sabab.  
Bir kecha ishratgahidin chiqti shoh,  
Xalq shahkorig'a aylay deb nigoh.  
Vir-iki mahram nadimi birla ul  
Tutti shabravlar kibi shahr ichra yo'l  
To ul el ahvolig'a solib iazar,  
Barchaning yearvaqtig'a qilgay guzar.  
Qaysi bir ishgaki qildi iltifot,  
Dedi ko'nglida shahi oliy syfot:  
"Kim bizing maxzanda bu ish bordur,  
Balki mundin yaxshiroq bisyordur!"  
Toki yetti bir g'aribi zorg'a,  
Oshiqi ozurdai afgorg'a.  
Oni qilg'on ishq jondin noumid,  
Hajr paydou nihondin noumid:  
Bag'rining xunobini ul notavon -  
Ko'z yo'lidin har taraf aylab ravop;  
Qon bila tufrog' aro ko'nglida tob,  
Nim bismil qushdek aylab iztirob;  
Har dam o'zga iolavu afg'on tuzub,  
Nolavu faryod el ko'nglin buzub;  
Ishq tig'i xasta ko'nglin chok etib,  
Ko'nglin o'z'luk mehnatidin pok etib;  
Ishq javridin chekib oncha ano,  
Kim vujudin aylabon mahzi fano,  
Bu fano tufroqqa aylab oni past;  
Har sari mo'yig'a solib yuz shikayet..  
Debki: "Uz fannida har oshufta hol,  
Ko'rguzub ayni mahoratdin kamol,

Tongla shah bazmini aylab jilvagoh,  
Har biriga lutflar ko'rguzsa shoh,  
Mangakim yo'q tuhfafe juz ohu dard,  
Naylab o'lg'oymen alarg'a hamnabard?!  
Lutf bo'lsa yo siyosat shohda,  
Kim manga yo'l bergay ul dargohda.  
Uzni loyiq lutfu ehsong'a demon,  
Kim siyosat qilg'oli ham arzimov.  
Koshki tig'i siyosat sursa ham,  
Uz qilichin bo'ynuma yetkursa ham,-  
Umrdin muncha sharaf basdur mang'g!  
Kom mundin o'zga ermastur manga!  
Lek chun yo'q menda oncha e'tibor,  
Qatlig'a dog'i umidim qoyda bor;  
Voykim, muhlik erur dardu g'amim,  
Ondin o'z holimg'a bo'lmish motamim".  
Shoh ko'rgach bu g'arib ahvolni,  
Bu g'aribi zorg'a bu holni.  
Ko'ngliga aylab asar mehr etti fosh,  
Kirdi ul vayrong'a ondoqkim k.uyosh.  
Lutf ko'rguzdiyu ko'nglin ovladi,  
Balki ruhini jism uyidin/qovladi.  
Oshiqi bechora ko'rgach bo'yla hol,  
G'oyati hayratdin o'ldi gungu lol.  
Qildi ul holatdin aylab ko'ngli g'ash,  
Mehmon olida jonin peshkash.  
Bil bu nav' o'lmakni jondin yaxshiroq,  
Ming hayoti jovidondin yaxshiroq.  
Bo'yla o'lmak odamiga bersa dast,  
Odam ermas jong'a bo'.lsa poybast.  
Qildi oni ishq aro ul dardu so'z,  
Ruhi sham'in mash'ali getifuro'z.  
Ashku kuymak sham'ini har tiyra shom,  
Ko'rki, aylar mehrga qoyim maqom.  
Foniyo, istar esang maqsudg'a yo'l,  
Ohu so'zu dard ila xursand bo'!

CXLVII

Yana bir qushning Hudhuddin savoli  
Yana bir soyil dedi: "K-ey pok qush,  
Rohbarliq fannida cholok qush.  
Bo'ldi bu yo'l shiddati haddin fuzun,  
To'li oning xud nihoyatdin uzun.  
Bu balo dashtin qachon qat' etkobiz,  
Asli manzilg'a ne yanglng' yetkobiz?  
Bizni bu ishtin xabardor aylagil,  
Sur'atu oromin izhor aylagil.  
Sharh qil og'oz ila anjomini,  
Avval emgok, so'ngra ayshu komini".

CXLVIII

Javob

Dedi Hudhudkim: "Ayo rahrav rafiq,  
Bu savoling voqe' o'ldi bas daqiq.  
Chun so'rarsen bo' safar kayfiyatini,  
Manzilu vodiy nashotu shiddatin -  
Kim necha vodiyu manzildur bu yo'l,  
Emdi men sharh aylayu, sen voqif o'l.  
Oldimizda yetti vodiydur azim,  
Har birida behadu andoza bim.  
Lek har vodiyda manzil behisob,  
Kim hisobidin qilur tab' ijtinob.  
Btti vodiy aslu manzillar furu',  
Ayloli ul asl sharhig'a shuru'.  
Vodii avval - Talab vodisidir,  
Boshlag'on ul yon sharaf hodisidir.  
Ishq vodisidir ondin so'ngra bil,  
Ul o't ichra boru yo'qni o'rtagil.  
Ishq chun qildi vujudungni adam,  
Ma'rifat vodiysig'a urdung qadam.



So'ngra Istig'nog'v'a vodiydur vase',  
Pastdur janbida bu charxi rafe'.  
Vodii Tavhid bil, ondin nari,  
Fard bo'lmoq necha borsong ilgari.  
Mundin o'tsang vodii Hayratdurur,  
Vodii Hayratda ko'p shiddatdurur.  
Borchadin so'ng vodii Faqru fano,  
Utmas ondin sayr ila solik yano.  
Qat' o'lur munda suluk ahliga gom,  
Ish bo'lur o'zga QILIR birla tamom.  
Lek manzildin xabar bermas birav,  
Kim bu yo'ldii yonmadi bir rohrav.  
Bu yeti vodiy dog'i ijmol erur,  
Lek tafsilida ko'p ishkol erur".

CXLIX

Talab vodiysining sifoti  
"Chun Talab vodiysig'a qo'ysang qadam,  
Ollingga har dam kelur yuz ming alam.  
Har dam onda yuz malolat yuzlanur,  
Har nafas miig sa'b holat yuzlanur.  
Istamak ranji ko'ngulni zor etar,  
Toimomog'lig' ruhni afgor etar.  
Jonni kuydurmak bo'lub mahrumluq,  
Vaslning mi'odi noma'lumluq.  
Ranju ko'shish sanchibon jismingg'a nesh,  
Dardi noyob aylabon Joningni resh.  
Istabon toimay duri noyobni,  
Mundadur tark aylamak asbobni.  
Molu mulku har nedur solikka band,  
To'rt takbiri fano urmoq baland.  
Harnekim g'ayri talabdur tashlamoq,  
Uzni maqsad manziliga boshlamoq.  
Qolmasa olam mato'idin jihat,  
Uzga nav' o'lg'ay sanga ul dam sifot.  
Ganjdin yetkay asar vayroninga,  
Zoti nuridin yorug'lur joninga.  
Ul yorug'lug' shavq o'tin tez aylagay -  
Kim talab raxshing sabukkez aylagay.  
Uzda topqoysen talabni birga yuz,  
Tog'lar bo'lgay sening olingda tuz.  
Joninga yetkay talabning rohati,  
Qolmag'ay ranju taabning shiddati.  
Durga topqon soyi ko'nglung xosliq,  
Bo'lg'oy osonroq sanga g'avvosliq.  
Lam'a ko'rgazgan soyi mehri visol,  
Lylagay shoming saharg'a intiqol.  
Oling'a kelsa agar pili damon,  
Ko'rgosen pashsha hamonu ul hamon.  
Gar yo'lungni tutsa yuz sheru palang,  
Bo'lgay oldingda nechukkim mo'ri lang.  
Ajdahodin yetmagay ko'nglungda ranj,  
Uyla bo'lmish bo'lg'ay ul mash'uf ganj.  
Kufr ila imonga urgaysen ilik,  
Bu tama'dinkim ochilg'ay bir eshik.  
Chun eshik ochildi ne kufru ne din,  
Ichkari kirgach qutuldung barchadin.  
Kufru imon rohravg'a kesh emas,  
Lsl yo'lda bandi rohe besh emas".

CL

Hikoyat

"Podshohe bor edi gardunjanob,  
Maxzanu gamji sipohdek behisob.  
G'or'edm ul shahga bir zebo o'g'ul,  
Bo'lg'udek Yusuf oning olida qul.  
Mehri xovar husn aro sharmandasi,  
Ko'yi tufrog'i uza afkandasi.  
Sarv oning naxli qadig'a soyadek,  
Oy uzori mehri'ga piroyadek.

Ham quyoshdek husn ila ofoqgir,  
Ham .qamardek eng bila gardun sarir.  
Ko'zi har boqmoqta olamni buzub,  
Ishq eliga o'zga olam ko'rguzub.  
Jon olib la'li takallum aylasa,  
Jon berib lekin tabassum aylasa.  
Oshiqu shaydosi oning olame,  
Olam ahli qatlidin ko'rmay g'ame.  
Kofiru usruk ko'zi solib mudom,  
Dinu imon ahli ichra qatliom.  
Ut yolindek raxsh harenkim surub,  
Ul choqin birla jahonni kuydurub.  
Olam ahli volau shaydo anga  
Lek mufrit nozu istig'no anga.  
Ko'z uchidin xalq sori chun boqib,  
Zulmi tig'idin tuman ming qon oqib.  
Ulsalar ofoq eli parvosi yo'q,  
Balki aylab qatl istig'nosi-o'q.  
Ko'yida yo'l toimayin payki nasim,  
Onda esmoqdin yetib joniga bim.  
Gulshani sori esa olmay shamol -  
Kim topib har bargi guldin go'shmol.  
Bir kun ul sahroga surdi o'tlanib,  
Nng'ali sahro fazosin aylanib.  
Yuz tuman majnun edi dasht uzra zor,  
Barcha ishq shiddatidin beqaror.  
Lek oning sori boqarg'a zahra yo'q,  
Ko'zga ul jonib nazardin bahra yo'q.  
Vasliga tolib vale yaxshi-yamon,  
Toimog'i lekin kishiga yo'q gumon.  
Nogahon shahzodai farxunda far,  
Soldi ul sahrodag'i elga nazar.  
Ko'zi tushti ikki zori xastag'a,  
Ishq zanjiri bila vobastag'a.  
Hukm chovushlarg'a qildikim yurung,  
Ul iki devonavashni kelturung.  
Surdi chun davlatsaro sori samand,  
Yo'lida hozir ul ikki mustamand.  
Ul birin mahbusi zindon ayladi,  
Bu birin ollida sakbon ayladi.  
Ul bo'lub bandilar ichra poyband,  
Bu bo'lub zanjirlarg'a mustamand.  
Bu baliyatda edilar muddate,  
Tortar erdilar bu yanglig' shiddate.  
Dardmande ayladi bir kun savol -  
Kim: "Nedur sizga bu mehnat ichra hol?"  
Bu dedi: "Mehnat degan qaysi bo'lur,  
Komu rohatdur, mashaqqat ne bo'lur.  
Menki ishq ko'nglum ichra to'lg'ali -  
Rozi erdim ko'yida it bo'lg'ali.  
Garchi itlarga mulozim bo'lmisham,  
Lek ul xayl uzra hokim bo'lmisham".  
Ul dedikim: "Ishq etib ko'nglumga zo'r,  
Rozi erdimkim maqomim bo'lsa go'r.  
Garchi holo band aromen ustuvor,  
Vaslidin ko'nglum erur ummidvor".  
Bu hikoyatlarni shohi mahjabin -  
Eshitur erdi nihon aylab kamin,  
Chun talabda bo'yla sodiq erdilar,  
Ishq tavrida muvofiq erdilar."  
Munbasit bo'ldi shahi -xurshidvash,  
Ko'ngliga so'zlar bag'oyat keldi xush.  
Fahm chun bu nav' ixlos ayladi,  
Ul ikovni mahrami xos ayladi.  
Chun talabda sidqdin erdi ayear,  
Oqibat bu nav' toptilar samar".

CLI

Ishq vodiysining sifati

"Chun Talab vodiysini qilding tamom,  
Qo'yg'ung ul dam Ishq vodiysig'a gom.  
Ishq keldi mash'ali getifuro'z,  
Dema mash'al, shu'lai ofoqso'z.  
Ishq aro har kimsa darxur bo'lmag'ay,  
Utqa loyiq juz samandar bo'lmag'ay.  
Ishq aro poku qalandarliq kerak  
Shu'la bahrida samandarliq kerak,  
Kuymak ishtur oshiqi devonag'a,  
Shu'la ichra o'ylakim parvonag'a.  
Dema ra'nolar ishi farzonaliq,  
Ko'palak haddi emas parvonaliq.  
Jilva aylar ko'palak gullar uza,  
Tifllarg'a husnu zebin ko'rguza.  
Qani pashmin kisvati devonadek,  
Shu'lag'a urmoq o'zin parvonadek.  
Ko'palakda garchi bo'lg'ay rangu xol,  
Bo'lmag'ay parvona yanglig' so'zu hol.  
Barcha qushning oti bulbul bo'lmadi,  
To azaldin ishq aro kul bo'lmadi.  
Kuymagan ishq ichra ermas ishqboz,  
Oshiq ermas ulki ermas jongudoz.  
Shod erur ishq ahli o'rtanmak bila,  
Bo'lmag'ay bu sheva o'rganmak bila.  
Ishq elining o'ti keldi xonaso'z,  
Uylakim ajdar dami vayronaso'z.  
Fard emas ushshoq ko'ngli ohdin,  
Ne chiqar juz dud otashgohdin.  
Olam o'rtar ishqdin tushkan yolin,  
So'znok etkon havodindur choqin.  
Ishq o'tig'a oshiqi pok o'rtanur,  
Barqdin ondoqki xoshok o'rtanur.  
Dema oshiq ko'nglini otashzada -  
Kim oni ishq aylamish otashkada.  
Gar tushar otashkada ichra kishi,  
Ne bo'la olg'ay juz o'rtanmak ishi.  
Kimsa bo'ldi ishq aro tushkan dam o't>  
Utqa nekim tushti bo'ldi ul ham o't,  
Ishq o'rtar kim sorikim oylanur,  
Kim tushar o't davrasig'a o'rtanur.  
Ishq sargardonni ermastur uyun,  
Kim erur jismig'a o't tushqon quyun.  
Ishq aro lozimdurur o'rtanmak-o'q,  
Ut aro kuymakdin o'zga chora yo'q.  
Ishq avjiddin qayonkim tushti barq,  
Jonni aylar shu'la selobida g'arq.  
Ishq barqi xonumonni kuydurur,  
Xonumon yo'qkim, jahonni kuydurur.  
Tarki jon oshiqqa varzish onglagil,  
Er uchun o'lmak kamin ish onglagil".

CLII

Hikoyat

"Asma'iy haj sori erdi rahnavard,  
Ko'rdi bir manzil aro ashjoru vard.  
Sabza birla gul aro bir chashma suv,  
G'ulg'uli hayvon suvidin nuktago'.  
Ravshanu pokiza oshiq jonidek,  
Orig' oning didai girenidek.  
Asma'iy ul suv yoqosida dame  
Ulturub yuvdi zamiridin g'ami.  
Tab'i ul manzilda ko'rgach intiqosh,  
Ko'rdi chashma. boshida bir taxta tosh.  
Onda yozilg'onki: "Ey ahli Hijoz,  
Chorasin oning chu bilgaysiz bu roz.  
- Kimsa bo'lsa ishq zori naylasun?  
Bo'lmasa sabru qarori naylasun?"  
Asma'iy chekti qalam birla davot,  
YoZDI ul tahririning ostida bot:

"Kim bu varta- ichra istar poklik,  
Qilmasun fosh etkoli beboklik".  
So'z javobin bo'yla chun soz ayladi,  
Manzilidin rihlat og'oz ayladi.  
Tonglasi aylab yana ul yon guzar,  
Ul bitilgan toshqa soldi nazar.  
Ko'rdikim ul xatni, surmushtur qalam,  
Burnog'i kotib yana surmush raqam:  
"Kim agar ul oshiqi ozurdajon -  
Bo'lsa poku tutsa ishqin ham nihon,  
Lek ul shavqu muhabbat shiddati -  
Tez o'lub, toq o'lsa oning toqati.  
Vasl bo'lsa ehtiyoji naylasun  
Toimayea bu ish iloji naylasun?"  
Asma'iy ko'rgach bu muhlik rozni,  
Tortti kilki fusunpardozni.  
Yozdikim: "Ul notavoni dardmand -  
Kim anga ishq ichra yozdim bo'yla pand.  
Toimasa ul pand birla ixtisos,  
Ulsunu ishq o'tidin bo'lsun xalos".  
Nosih berahm bu muhlik javob,  
Yozib o'tti chashmadin aylab shitob.  
Bir kun aylab ul navohiyda hayal,  
Tonglasi ulgyon yana surdi jamal -  
Kim yana oshiq javobin onglag'ay,  
Bedili g'oyib xitobin onglag'ay.  
Ko'rdi ul chashma boshinda bedile,  
Ishq ichinda umridin behosile.  
Oshkoro paykaridin zorlig',  
Rangu vaz'idin ayon bemorlig'.  
Xalq ko'nglin buzg'udek holi oning,  
Hal bo'lub ishq ichra ishkoli oning.  
Boshin ul tosh uzra ul yanglig' urub,  
Kim ikisin bir-biridin sindurub.  
Chashma suvin qoni aylab lolagun,  
Kim anga ishq ichra yozdim bo'yla pand.  
Ul nasihatkim, anga nosih bitib,  
Bedil ul so'z birla tarki jon etib.  
Jonni hijron shiddatidin qutqorib,  
Ishq aro go'yo yotur o'zdin borib.  
Asma'iy ko'rgach bu holi bul'ajab,  
Ko'ngliga sanchildi yuz nishi taab.  
To'nni chok aylab, amoma' toshladi,  
Pandi maqtulig'a motam boshladi.  
Hol ko'rmaydur edi mundin qotiq,  
Navha birla yig'ladi ochchiq-ochchiq.  
Ko'nglin ul ish asru mahzun ayladi,  
Chok etib yer, oni madfun ayladinB°.  
Chun shahid erdi halok o'lg'on badan,  
Jismig'a qonlig' libos o'ldi kafan".  
Foniyo, ishq ichra foniyo bo'yla bo'l,  
Bo'lmasa sabru shikebing, bo'yla o'l.  
Kimga bu o'lmak nasib etsa xudo,  
Yuz tuman jon bo'yla o'lmakka fido.  
CLIII  
Ma'rifat vodiysining vasfi  
Ma'rifat vodiysin ondin so'ngra bil,  
Dashti bepoyonlig'in nazzora qil.  
Kimki bu vodig'a bo'ldi muttasif,  
Topti anda hollarni muxtalif.  
Vodiyedur yuz tuman ming onda yo'l,  
Ul bu bir kelmay, oningdekkim bu ul.  
Ixtilofi juzv ila kul mundadur -  
Kim taraqqiyu tanazzul mundadur.  
Yuz tuman rahrav ko'rarsen beqaror,  
Har biri bir yo'lni aylab ixtiyor.  
Uz borur yo'lig'a har bir muftaxir,  
Yo'lni aylab o'z yo'lig'a munhasir,

Bu oni tutmay musallam, ul muni,  
Har bir o'zdin o'zga ko'rmay ul buni.  
Pashsha oida rahnavardu pil ham,  
Pashsha anda toyiru Jibril ham.  
Musiyu Fir'avn onda rohrav,  
Bil yaqinkim, birdek ermas bu ikav.  
Mahdiyu Dajjolg'a yo'l mazhabi,  
Lek teng bo'lmay Masihu markabi.  
Ahmadu Bu Jahl etib onda zuhur,  
Bu tushub zulmatqavu ul g'arqi nur.  
Da'b anda sayr etib yaxshi-yamon,  
Mo"min onda soliku kofir hamon.  
Lot losin dayr eli aylab panoh,  
Ka'ba ahli lek loi lo iloh.  
Kufr ahli Lotni ogah debon,  
Lek islom ahli illallah debon.  
Muxtalif bo'lmay ne bo'lsun munda ish,  
Chun bu yanglig' muxtalif bo'ldi ravish.  
Mundin aytibtur nabiyi rohbar,  
Kim ulusqa haq sari bo'lsa safar.  
Istasang yo'l kasratig'a addu had,zi  
Xalq anfosi bila teng bil adad.  
Ham bari durdi emas, ham borcha sof,  
Bizzaruradur ulusqa ixtilof.  
Bu mahalda gar gadodur, gar muluk,  
Har bir o'zga yo'l bila aylar suluk.  
Nafs chun bo'ldi mahalli ixtilof,  
Lozim o'ldi munda avsofu kamol.  
Munda solikka tafovut bo'ldi fosh,  
Anga mehrobu munga but bo'ldi fosh.  
Bo'ldi o'z irfoni harkimga sifat,  
Ko'p tafovut qildi paydo ma'rifat.  
Har kishi o'z tavrada istab kamol,  
Qildi vodiy tay qilurg'a ishtig'ol.  
Gar suluk atvorida tag'yir edi,  
Maqsadi lekin borinitsg bir edi.  
Yo'l agar egri edi yo erdi tuz,  
E yiroq yoxud yaqin ko'rguzdi yuz.  
Ba'zi o'ldi, ba'zi itti yo'l aro,  
Ba'zi avvora bo'lub har qo'l aro.  
Bo'lmadi har yo'lni chun qat' etmagan,  
Bo'lmadi maqsadg'a dog'i yetmagan.  
Ma'rifat xurshidi chun qildi tulu',  
Har kim o'z maqsudig'a aylab ruju',  
Uz sulukiga natoyij istadi;  
Qilmoq o'z naqdini royij istadi.  
Chun ki partav soldi ul pokiza nur,  
Bo'ldi harkimning kamolig'a zuhur.  
Toptilar harkimki chekmish erdi ranj,  
Uz suluku ranjining xurdida ganj.  
Chun suluk ichra ko'p erdi ixtilof,  
Ko'pragi durd erdi, lekin ozi sof.  
Kim ravishda sofi erdi mashrabi,  
Bor edi ul tobe'i shar'i nabi".

CLIV

Hikoyat

"Bas munosibdur, eshit, bu mojarro,  
Naql mundoqdurki: Hindiston aro -  
Tushtilar bir iav' ila jam'i basir,  
E musofirlig' bila yoxud asir.  
So'ngrakim berdi alarg'a ro'zgor,  
Maskanu ma'volari ichra qaror.  
Bir kishi so'rdi: "Ko'ribsizlarmu pil?"  
Dedilar: "Hoz!" Oytti: "Ayting dalil!"  
Chun alar ko'rmaydur erdilar oni,  
Yaxshi ham so'rmaydur erdilar oni.  
Har biri bir uzviga surtib ilik,  
Hosil aylab erdilar ondin bilik.

Qo'llarin mas aylagan dedi: "Sutun",  
Qornin etkon mas dedikim: "Besutun".  
Ul birikim mas xartum ayladi.  
Ajdaho andomi ma'lum ayladi.  
Ul birikim tishlarin qildi bayon,  
Dedikim ikki so'ngak bo'ldi ayon.  
Quyrug'idin ulki ko'rguzdi xabar,  
Dedi bir af'i osilmishdur magar.  
Boshig'a ul birki surtub erdi qo'l,  
Bir qiyoping tumshug'i sharh etti ul.  
Ulki yetkurdi qulog'ig'a ovuch,  
Dedi tahrik ichra ikki yelpig'uch.  
Borchasi um'yo yuzidin so'z dedi,  
Garchi ul so'zlar bori voqe' edi.  
Lek nuqson erdi taqrir ichra ko'p,  
Yo'q edi tartib tayg'ir ichra ko'p.  
Chun hakimi komili hindu najod,  
Pilbonlig' shevasida ustod,  
Bo'ldi ul taqirirlarg'a mustame',  
Naql qilg'onlarga bo'lmay mumtane'  
Dedi har bir ulcha voqif erdilar,  
Pil holidin nishone berdilar.  
Bir-birining so'ziga aylab xilof,  
Gar jadal qildilar erdilar maof.  
Har biri o'z bilganidin dedi so'z,  
Solmog'on erdi biri pil uzra ko'z.  
Lek jam' o'lg'onda bu barcha sifat,  
Pilg'a hosildur ul dam ma'rifat.  
Komili biynog'a chun. erdi yaqin,  
Betakalluf dedi bori so'zni chin".  
CLV

Istig'no vodiysining bayoni  
- Vodiy ondin so'ngra Istig'nodurur,  
Onda teng a'lovu gar adnodurur.  
Har dam istig'no yeli bo'lg'onda tez,  
Solibon ofoq aro yuz rustaxez.  
Yog'ib istig'no sahobidin yog'ini,  
Yuz tuman olamni suv eltur sog'in.  
Etti daryo onda bir qatra matar,  
Etti ko'k xashxosh chog'lig' muxtasar.  
Etti do'zax onda bir uchqun kibi,  
Sakkiz uchmog' onda bir shudrun kibi.  
Mo'rlarg'a tu'ma onda barcha sher,  
Pashshasi pil ovlamoqqa bas daler.  
Etti kishvar ichra shohi qahramon,  
Bir gado onda hamonu ul hamon.  
'Tig'i qotil tortibon yuz ming cherik,  
Ko'zga kelmay onda qoqimcha irik. '  
Ajdahokim ko'kni chekkay dam bila,  
Onda yakson rishtai Maryam bila.  
Bo'ldi ming xayli maloik bartaraf,  
Nogah Odam kiydi bir toji sharaf.  
Bo'ldi yuz ming jismdin begona ruh,  
Toki kishtibonlig' oyin qildi Nuh.  
Yuz tuman Namrudni pashsha zalil -  
Qildi to o'tni chechak qildi Xalil.  
Bo'ldi yuz ming tiflning qoni hadar,  
To Kalimulloh bo'ldi tojvar.  
Bog'ladi zunnor yuz ming ahli din,  
To Masih anfosidin jon topti tin.  
To'kti yuz ming qon bu zolim ko'hna dayr,  
To Muhammad bo'ldi bir tun arshsayr.  
Munda yakson keldi yo'qu bor ham,  
Ahli dinu zumrai kuffor ham.  
Ming yil ar Zahhok ulustin to'kti qon,  
To Masih o'lgan badang'a berdi jon.  
Yoki Buxtunnasr qildi zulmu kin,  
Yoki No'shivong'a adl o'ldi qarin,

Ikkisining munda birdur hukmi bil,  
Kel, bu istig'no sari nazzora qil.  
Yuz tuman xurshid agar bo'lsa adam,  
Bo'ldi sog'in charxdin bir zarra kam.  
Erga singsa yuz tuman bahri amiq,  
Qatraye o'ksuldi; tutgil, ey rafiq.  
Kuysa gar yuz ming tuman huru pari,  
Kuydi tut bir pashshai sing'on pari.  
El sovursa bu to'quz aflokni,  
Dam uchurdi onglag'il xoshokni.  
Qofdek yuz tog'ning yo'q bo'lmog'in,  
Er yuzidin bir qum o'ksuldi sog'in.  
Sidra shoxi birla to'biy bo'lsa yo'q,  
Uksudi tut beshadin bir yofrog'-o'q.  
Onda teng ko'r gumrahu ogohni,  
Dayr ko'yi birla baytullohni.  
Birdurur gar Ka'ba birla butkada,  
Bo'lsalar ma'mur yo otashzada.  
Ming yashar pil tongla tug'qon yoshcha  
Charxi a'zam donai xashxoshcha.  
Kufr ila dinga chu teng miqdordur,  
Munda ish solikka bas dushvordur".

CLVI

Hikoyat

"Ikki shatranj o'ynoguchi ustod,  
Arsai shatranjg'a aylab kushod.  
Ikki jonibdii bo'lub oromgir,  
Tuttilar o'rtada shatranji kabir.  
Har tarafdin bir shah o'ldi oshkor,  
Borcha oyinu sipohi shohvor.  
Har biriga bir vaziri rostgom,  
Ena bir farzinu lekin kajxirom.  
Ul ikovdin biri Rum ahliga shoh,  
Ena bir zang ahliga kishvarpanoh.  
Ustod ul shoh ila xaylin terib,  
Saflarig'a zebu oroyish berib.  
Kinavarlar ot solib maydon aro,  
La'blar zohir qilib javlon aro  
Ham buzub maydoni razmu ham hisor,  
Bo'lsa mag'lub etkoli ul yon qaror.  
Saflar ichra pil ila zurrofa ham,  
Rux bila dabbobau kashshofa ham.  
Ham yoyoq cherik sipoh ollida chust,  
Qilg'ali hangoma oyini durust.  
Harb ahli ham urush rasmin tuzub,  
Ko'p o'yun ham bir bir-biriga ko'rguzub.  
Qaysi birkim o'z sipohin berkitib,  
Buzg'oli ul birisi tadbir etib.  
Urtada zohir bo'lib a'jubalar,  
Balki behad yuzlanib mansubalar.  
Munda ko'p gurdu sipahsolor ham,  
Zohir aylab la'b ham, paykar ham.  
Imtidod oncha topib bu razmgoh,  
Kim cherik tortib urushqay ikki shoh.  
Balki ko'prak ham o'tub ondin zamon,  
Kim urushqay ikki shohi qahramon.  
Muncha oyinu sipohu karru far,  
Qal'au maydonu javlonu mafar.  
Ham burong'or, ham juvong'or kinsigol,  
Ham yana g'ulu hirovulda bu hol.  
Har sipahbad o'g'li olinda yurub,  
Ondin avval o'zni ishga yetkurub.  
Razmgoh maydoni qat' o'lg'och tamom,  
Ul atosiga bo'lib qoyim maqom.  
Bir yoyoq ham bir qiroqdin rahnavard,  
Kim musoid bo'lsa charxi tezgard.  
Chunki maydon vus'atin raf aylagay,  
Kim cherikin yolg'uz ul daf aylagay.

Oncha oyindin to'la bu razmgoh  
Kim urushta ikki shohi kinaxoh,  
Har birida yuz tuman navxosta,  
Bo'lmag'ay mundoq masof orosta.  
Ham ishida muncha oyin o'lmag'ay,  
Ham elida muncha tazyin bo'lmag'ay.  
Muncha bunyodu masofu kinu razm,  
Chun o'yunchi yig'mog'ig'a qildi azm.  
Arsaning bir go'shasin bot, yo'qki, kech  
Tortibon buzg'och, bu majmu' o'ldi hech.  
Ne qolur ul razm ila kindin asar,  
Ne hamul tartibu oyindin asar.  
Muncha mazkur o'lg'on oyinu rusum,  
Razm tartibida bir yondin hujum -  
Hech o'lur ul nav'kim ahli daqiq -  
Necha zohir aylasa fikri amiq.  
Hechlikdin o'zga toimas bir pashiz,  
Uylakim bir xasta yuz yoshar kaniz.  
Bog'labon bir pora bo'zda beshu kam,  
Utqa oni tashlay olg'oy, suvga ham.  
Chun tazalzul tushti ul bunyodg'a,  
Ne tafovut aylagay ustodg'a.  
Chun xarita ichra bog'landi bori,  
Shah quyidur yo piyoda yuqori.  
Ul ham istig'nodin osoredurur,  
Balki ondin bir namudoredurur.  
Bas bu tamsile sari nazzora qil,  
Asli istig'noni yuz ming muncha bil.  
Chun bu ma'ni sori bo'ldung rahshunos,  
Barcha ishni aylagil mundin qiyos".

CLVII

Tavhid vodiysining ta'rifi

- Vodii Tavhid ondin so'ngra bil,  
Fard o'lub tajrid ondin so'ngra bil.  
Chun bu vodiy sori sayring qo'ydi gom,  
Fardu yaktolig' sanga bo'ldi maqom.  
Chun bu vodiyg'a nihoyat topti sayr,  
Munda bir bil yuz tuman ming bo'lsa tayr.  
Borchag'a komu havo tajrid o'lur,  
Borchag'a lahnu navo tafrid o'lur.  
Bu ravishlarg'a chu yetti ul kashysh,  
Borchag'a birlikda gum bo'lmoqdur ish.  
Birda birdin hosil o'ldi bir adad,  
Yo'q xiradqa munda dam urmoqqa had.  
Chun sening olingga tushti bo'yla pech,  
Bilki ermish birdin o'zga barcha hech.  
Bir bo'lu, birko'ru, bir de, bir tila,  
Mayl qilma munda ikkilik bila.  
Ikkilik bu yo'lda ahvalliqdurur,  
Sirri vahdatdin mu'attalliqdurur".

CLVIII

Hikoyat

"Bo'ldi chun Mansur tavnidi, durust,  
Kim "Anal-haq!" erdi alfoziDy chustch  
Ko'p nasihat qildilar arbobi din,  
Kim bu ermas shevai ahli yaqin.  
Ko'p suluk ahlig'a kashf o'lub bu hol,  
Ham adab asrabdurur, ham e'tidol,  
Sen dog'i bu da'vi izhor aylama,  
Nafsn mustavjibi dor aylama.  
Mayetroq chun tushmish erdi jom anga,  
yo'q edi bu nag'madin orom anga.  
Onga bir kun voqe' erdi turfa hol,  
Har dam eltur erdi oni bu xayol.  
Kim Rasulillohg'a bo'lg'och bu maqom,  
Kim buroqin ayladi gardunxirom.  
Etti birlik gavharidin toj anga,  
Bo'ldi vahdat poyasi me'roj anga.



Qoba qavsayn avji hosil ayladi,  
Li ma' ollo qurbi vosil ayladi.  
Bu xitob o'lg'onda teigrinin nasib,  
Kim nekim komingdur - ista, ey habib.  
Tengri lutfi uzrxohin istadi,  
Osiy ummatning gunohin istadi.  
Oncha bazla g'olibu lutfi amiyim,  
Onga lutfi mufritu xulqi karim.  
Bovujudi bu, haq etkay iltimos,  
Istagil deb lutf qilgay beqiyos.  
Osiy ummat jurmin etguncha talab,  
Iltimos etsa edi shohi arab -  
Kim azaldin to abad harkimki yo'l  
Egri bormish borchaning g'affori bo'l.  
Rahmat etkil barchag'a isyon bila,  
Jurmiddin kech borchaning g'ufron bila.  
Ne uchun ul ma'dani sidqu safo,  
Qildi erkin muncha birla iktifo.  
Bosh urub ko'nglidin oning bu xayol,  
Dam-badam aylar edi bu qilu qol.  
Oni bu andisha pomol aylabon,  
Ajzu hayrat ilkida lol aylabon.  
Kim Rasulilloh anga bo'lli ayon,  
Mushkili hallin bu nav' etti bayon.  
K-ey fuzul ayvonida o'lturg'uchi,  
Lofi vahdatdin "Anal-haq!" urg'uchi.  
Bilmadingkim, ul sifat oliy buruj  
Kim men aylab erdim ul oqshom uruj.  
Onda menlikning xayoli yo'q edi,  
Balki bu lafz ehtimoli yo'q edi.  
Eltgan ul erdi, boshlag'on ham ul,  
Istag'on ham ul, bag'ishlag'on ham ul.  
Sen ajab ko'tahnazarliq aylading,  
Bo'yla yerda bebasarliq aylading.  
Kim oningdek vodiya Tavhid aro,  
Gulshapi tajrid ila tafrid aro,  
Haml qilding menliku senlikka yo'l,  
Bu ikilik vasfidin pok erdi ul.  
Ul edi degon o'zi, berg'on o'zi,  
Bazl aro sochqon o'zi, terg'on o'zi.  
Ul raqam pok erdi menlik rangidin,  
Nag'masi fard ikkilik ohangidin.  
Onda men senlik taxayyul aylagan,  
Ikkilik naqshin taaqqul aylagan,  
G'ayri ahvalliq emastur, bil muni,  
Xotiringdin mahvu zoyil qil muni!"

CLIX

Hayrat vodiysining so'zi  
"Vodiyi Tavhid qat' o'lg'on zamon,  
Vodiyi Hayrat ko'runur begumon.  
Har nafas yetmas kishi boshiga tig',  
Bosh urar ming oh ila yuz ming darig'.  
Hayrat aylar tilni gungu lol ham,  
Aql zoyil, hushni pomol ham.  
Kechavu kunduzga boqsa har necha,  
Onglayas kunduzmudur yoxud kecha.  
Yo'qni bilmas, borini ham onglamas,  
Ne bularni tonglari ne tonglamas.  
Har nechakim solsa ko'z hayron bo'lur,  
Bo'yla hayronlikda sargardon bo'lur.  
Munda chun qo'ydi qadam ahli ravish,  
Onga hayronlig'din o'zga bo'lmas ish.  
Harne kasb aylab edi tavhid aro,  
Vodiyi tafrid ila tajrid aro.  
Barchasi ondin bo'lur mahvu adam,  
Yo'qki hosil qilg'olikim, o'zi ham.  
So'rsalarkim bormusen yo yo'qmUsen,  
Hech qaysi, yo ikkisi-o'qmusen.

Bera olmas hech qoysidin javob,  
Boru yo'qluqqa qila olmas xitob.  
Urtada yo bir taraf yo tashqari,  
Chargada yoxud keyin yo ilgari.  
Hech qoysida o'zin bilmas yaqin,  
Hayrat aylar oni xorij borchadii.  
Foniy erkanniyu boqiylik'ni ham,  
Mast erkanniyu soqiylik'ni ham.  
Uzining mavjudu ma'dumin dog'i,  
Zotining majhulu ma'lumin dog'i.  
Boqsa haryon hayratin afzun topar,  
Uzni hayrat ichra digargun topar  
Derki, oshiq erkonimni tonglamon,  
Kimga erkonniiy lekin onglamon.  
Boqibon har zarraga zarrotdin,  
Hayrat aylar nafyi yo isbotdin.  
Bu maqom ichra erur asru ajab,  
Bir tuganmay ming kelur o'tru ajab.

CLX

Hikoyat

"Bor edi bir xisravi ofoqgir,  
Xodimi dargohi yuz sohib sarir.  
Mulki onig Qirvondin Qirvon,  
Qirvon to Qirvon hukmi ravon.  
Pardada erdi nihon bir gavhari,  
Husnining sharmandasi huru pari.  
Xo'blug' bo'stoni ichra naxli noz,  
Qaysi naxli noz, sarvi sarfarozi.  
Jon shabistonida sham'i dilpazir,  
Sham' yo'qkim, mash'ali mehri munir.  
Ayni noz ichra baloyi jon ko'zi,  
Ko'rmagan ondoq balo davron ko'zi.  
Zulfu xoli fitnadin anbarfishon,  
Fitna ul yanglig' - kishi bermay nishon,  
Orazida la'lu anfosi fasih,  
Ittisol aylab quyesh birla Masih.  
Vasli ummidida sohibjohlar,  
Balki sohibtaxt oliy shohlar.  
Kimsaga bo'lmay muyassar bu murod  
Kim, ko'ngul qilg'ay oning vaslig'a shod.  
Ul ham el mahramlig'in qilmay havas,  
Ikki yondin qat' o'lub bu multamas.  
Ya'ni ulkim bo'lsa davron ichra toq,  
Juft anga ne nav' tushkay ittifoq.  
Da'bi bu yanglig' edi joriy oning,  
El bo'la olmay xaridori oning.  
Ittifoqo bir kecha tush ko'rdu ul,  
Paykarekim toqatig'a urdu yo'l.  
Ruhdin bo'lg'on mujassam paykari,  
Husn avji uzra mehri xovariy.  
Safhai husnida mushkomez xat,  
Xoli ul yanglig'ki xat uzra nuqat.  
Sarvdek sarkashliku ra'nolig'i,  
Gul kibi nozukluku zebolig'i.  
Bu - charog'i mehru, ul - badri munir,  
Ikkisi bir taxt uza oromgir.  
Dam-badam no'sh aylabon jomi visol,  
Bir-birisidin olib komi visol.  
Chun bu uyqudin ko'z ochti gul'uzor,  
Itmish erdi ko'ngli mulkidin qaror.  
Ortar erdi dam-badam shaydolic'ig'i,  
Bo'lg'udek erdi ayon rasvolig'i.  
Har zamon ul tushni aylab orz.u,  
Ko'zdin eltib erdi lek uyquni su.  
Ko'nglidin osoyishu komi ketib,  
Ham kecha, ham kunduz oromi ketib.  
Bir kun ortib hajr dardidin malol,  
Chiqti oliy qasr uza oshuftahol.

Har taraf boqib ko'pgul taskinig'a,  
Yo'l tilab sabru shikeb oyinig'a.  
Nogahon ko'z soldi, tortib dudi oh,  
Bir tarafkim bazm tuzmish erdi shoh.  
Tushta ko'rgan kimsaga tushti ko'zi,'  
Oh, urub o'z holidin bordi o'zi.  
Navjavone erdi shah xuddomidin,  
Dahrning sarfitnai ayyomidin.  
Ul dog'i chun soldi ko'zni bu taraf,  
Ishq o'qig'a ko'nglini topti hadaf.  
Tushti oshub o'yla joni zorig'a,  
Kim asar qildi tani afgorig'a.  
Ko'ngli mulki ichra tushti qo'zg'alon,  
Joni qasdig'a yovushti qo'zg'alon.  
Hushu sabri qolmadi o'z holida,  
O'zi ham bordi alar dunbolida.  
Utti oqshomgacha ahvoli irik,  
Ne o'luk topib o'zini, ne tirik.  
Tun savodi yerga bo'lg'och pardapo'sh,  
Zohir ett-i pardadin yuz ming xuro'sh.  
Tongg'a tegru holati afg'on edi,  
Ohu ashki o'ylakim to'fon edi.  
Tong qushi qilg'och sahar sirrini fosh,  
Tungacha urmoq edi ko'ksiga tosh.  
Ikki yondin bo'yla savdo soldi ishq,  
Ikki kishvar ichra yag'mo soldi ishq.  
Navjavon ishq ichra garchi zrr edi,  
Ko'p fusun birla o'zin asror zdi.  
Lek mahvash beqaror erdi base,  
Ishqdin zoru nazor erdi base.  
Ko'rdi borg'udek ilikdin ixtiyor,  
Ishqi rasvoliqa tutqudek qaror.  
Qildi chun bechoralig' behad zuhur,  
Chorajo'luq shevasin ko'rdi zarur.  
Utti ixfo aylamakdin chun ishi,  
Dedikim, yo'q chora topilmas kishi.  
Bor edi ikki muvofiq mahrami,  
Shodlig' birla g'am ichra hamdami.  
Choragarlikda muqarrar har biri,  
Sohiru sho'xu fusungar har biri.  
Makru afsun g'oyatiga yetkuchi,  
Pashsha birla pilni juft etkuchi.  
Uylakim pashsha o'zin ko'rmay kichik,  
Pil o'zin toimay ulug'roq jussalik.  
Har biriga revu afsunu fireb,  
Ishq birla jang qilguncha shikeb.  
Bovujudi bu biri xush nag'ma rud -  
Cholg'uchiyu, chekkuchi bu bir surud.  
Chun muvofiq tortib ul sozu navo,  
Zuhra burjidan qilib etmak havo.  
Bu biri sozi unidin jon olib,  
Nag'madin ul bir badanga jon solib.  
Bu cholib soz, ul biri chekkach xurush,  
Tarki hush aylab, eshitkach ahli hush.  
Mohvashqa bo'yla yetkoch shiddate,  
Ul ikovni istab etti xilvate.  
Dedi, holin yig'labon ochchig'-ochchig',  
Kim nechuk ishq aylamish holin qotig'.  
Tushta ko'rgan oni mahzun qilg'onin,  
Ko'rgan uyg'oqlikda majnun qilg'onin.  
Ul yigit ishqida zor o'lg'onni ham,  
Volavu beixtiyor, o'lg'onni ham.  
Debki:- "Siz ikki rafiqi dilnavoz  
Shiddatimg'a bo'lmag'aysiz chorasoz,  
Xorxorim xalq aro gul qilgusi,  
Paykarimni bu o'tum kul qilgusi.  
Kuymog'imdin hech g'am yo'qtur manga,  
Ulmagimdin ham alam yo'qtur manga.

Lek nomus o'tturing kim ko'p gazof,  
Zohir aylab men urub taqvoda lof.  
Ham otam nomusidin beholmen,  
Kim oning sharhida gungu lolmen.  
Kim nechuk shohi falakmiqdor erur,  
Ro'zgorig'a bu ish ko'p or erur.  
Yuz meningdek o'lsa ondin bok yo'q,  
O'ylakim daryoda bir xoshok yo'q.  
Shahni benomusluqqa toqatim -  
yo'q uchun bu ishta ortar shiddatim.  
Men dedim holimni emdi siz biling,  
Ulturung yoxud ilojimni qiling.  
Tavsan erdim, ishqdin bo'ldum zabun,  
Ojiz o'ldum garchi bor erdim harun,  
Xotiri noshodima rahm aylangiz,  
Nolavu faryodima rahm aylangiz".  
Chun yetishti ul ikovga bu nido,  
Dedilar, olinda jon aylab fido:  
- Ayloli bir chorakim, ul nozanin  
Andoq o'lg'ay sanga ma'nusu qarim.  
Kim bu ishni hech odam bilmagay,  
Qaysi odam - ul pari ham bilmagay.  
Sen shikebo bo'l, vale bir necha kun -  
Har dam ohu nola birla chekma un.  
Chun muroding ishta ixfo dur base  
Bizga bu ixfo tamannodur base.  
Vaslg'a chun bo'ldi ummedi husul,  
Mohvash sabru shikeb aylab qabul.  
Ikki donog'a taammul bo'ldi ish,  
Tuzdilar matlub ila borish-kelish.  
Ul yigitga aylab o'zni oshno,  
Ishqdin ko'nglida toptilar ano.  
Oncha zohir qildilar makru fireb,  
Kim olarg'a sayd bo'ldi ul g'arib.  
Bu biri bo'ldi ano, ul bir - singil,  
Dedilar: "Chorangni bizdin onglag'il.  
Garchi ahvolingni qilmassen ayon,  
Lek bildukkim nedinsen notavon.  
Ishq ko'nglung mulkin etmish poymol,  
Hajringa bizdindur ummedi visol".  
Ul yigit bu nuktadin xursand o'lub,  
Jondin ul ikkiga hojatmaid o'lub.  
Nekim ul ikki desa farmon bil.a,  
Bu biri aylab itoat jon bila.  
Korvonlar tez etib bozori shayd,  
Qildilar ul turfa qushni o'yla sayd.  
Kim degachkim, qo'y bizing manzilga gom,  
Notavon azm etti ul yon shodkom.  
Tuzdilar shohona bazmi dilpazir,  
Boda ichti ishq aro bo'lg'on asir.  
Chun qadah kayfiyati bo'ldi ayon,  
Aylar erdilar hikoyatlar bayon.  
Ishqu oshiqlikning o'tu dudidin,  
Vasl ila hijron ziyonu sudidin.  
Oshno so'zlar murag'g'ib rozlar,  
Oncha sharh ettilar ul damsozlar.  
Bo'yla so'zlarda tutub jomi murod,  
Nomurod ondin topib komi murod.  
May bila ul nuktalardin navjavon,  
Ishq aro ul nav' bo'ldi notavon,-  
Kim anga yuzlandi gungu lollik,  
Har zamon o'z holidin behollik.  
Bu mahalda chektilar dilcash surud,  
Cholibon hush olg'uchi xush nag'ma rud.  
Notavon ul nav' qildi tarki hush,  
Kim degaysen hushbar may qildi no'sh.  
Tun qorong'u erdiyu bexud harif.  
Komronlig' aylab ul ikki zarif.

Ishda bo'lmay sust, aylab jiddu jahd,  
Hozir ettilar ravon bir turfa mahd.  
Oni mahd ichra solib, aylab shitob,  
Gom urarda zohir aylab iztirob.  
Mohvash bazmig'a hozir qildilar,  
Sarvu gulg'a vasl zohir qildilar.  
Onda xud omoda asbobi tarab,  
Muntazir xilvatda mohi no'shlab.  
Kim yeturdilar ul ikki choragar,  
Mahd aro.bir sarv qaddi siymbar.  
Mohvash taxti uza yetkurdilar,  
Oyni xurshidqa topshurdilar.  
Mohvash vasl ichra bo'lg'och komyob,  
Dedikim, kahgilg'a urdilar gulob.  
Hushsizg'a atr chun topti mashom,  
Ko'z ochib ko'rdi behishtoyin maqom.  
Yonida ul g'ayrati huru pari,  
Ko'nglini zor aylagan mahpaykari.  
Qo'pub o'lturdi ajab holat bila,  
Boqti haryon yuz tuman hayrat bila.  
Ostida ko'rdi biyik shohona taxt,  
Enida munis shahi farxunda baxt.  
Dedi: "Yo rabkim, ne hol erkin bu hol,  
Tushmu uyg'ag'lig'mu erkin yo xayol!"  
Berdi mahvash lutf ila taskin anga,  
Ko'rguzub komi visol oyin anga.  
Kim tush ermastur, bu, ey betobu hush,  
Shukr etib qil emdi jomi vasl no'sh.  
Istabon ichti pari bir jomni,  
So'ng anga tutti mayi gulfomni.  
Soqiyi Uzro uzori hullapo'sh,  
Hushsizga chun ichurdi necha qo'sh.  
Jomi may urdi hijob o'tig'a suv,  
Behijob o'ldi tariqi guftu-go'.  
Oshiqi mahzunu ma'shuqi hazin,  
Bo'ldilar ishrat uyida hamnishin.  
Andoq o'ldi birlik oyini ravo,  
Kim ikilik o'rtadin bo'ldi sivo.  
Har tarabkim, bo'lg'ay imkoni havas,  
Bir-biridin topti ikki hamnafas.  
Betahoshi o'yla oyini vifoq,  
Kim oning sharhi adabdindur yiroq.  
Ham yigit mushoqu ham muhtoj qiz,  
Yuzga yuz qo'yub, og'iz uzra og'iz.  
Uzgani mundin qiyos etmak bo'lur,  
G'oyatu imkoniga yetmak bo'lur.  
To sahar bu nav' zdi ayshu nashot,  
Ikki yondin betahoshi inbisot.  
Subh chun aylarga tun rozini fosh,  
Bo'ldi yer mushki uza kofurposh.  
May dag'i zohir qilib behad surur,  
Eltib erdi bazm ahlidin shuur.  
Kim ul ikki pardapo'shi pardavar,  
Bo'ldilar, ul parda ichra nag'magar.  
Bazm elidin g'orati hush ettilar,  
Ul yigitni o'yla madhush ettilar.  
Kim yiqildi za'f oni behol etib,  
G'ash bila idroki holidin ketib.  
Choragarlarg'a bu ish chun berdi dast,  
Mahd aro bedilni aylab poybast.  
Naql qildilar hamul koshonag'a,  
Oshiqn g'amxorani g'amxonag'a.  
Mastlig' uyqusidin bo'lg'och farog',  
Tong yelidin holig'a keldi dimog'.  
Ko'z ochib bedil taammul ayladi,  
Utkan ahvolin taxayyul ayladi.  
Oh urub chiqti dimog'idin tutun,  
Tosh ila qo'ymodi a'zosin butun.

Uz-o'zi birla qilib ko'p mojaro,  
Ayladi ko'ziga olamni qaro.  
Navha tuzdi ashki anjumrez ila,  
Boshladi oshub rustoxez ila.  
Vasl bazmin chun xayol aylar edi,  
Nolai majnunmisol aylar edi.  
Der edi: "Yo rab, ne tadbir aylayin,  
Kimga o'z holimni taqdir aylayin.  
Gar desam xomush o'lay, toqatmu bor,  
Uzni zabt aylay desam, quvvatmu bor!  
Holatim maxfiy tutay yo fosh etay,  
So'z deyin yo tek turay -; bilmay netay.  
Gar desam aytay qani poyon anga,  
Derga mingdin birni yo'q imkon manga.  
Gar nihon tutmog'lig'in qilsam xayol,  
Yo'qturur jon elturunga ehtimol.  
Aylar erdi bo'yla g'avg'ou xurush,  
Ne tanida ruhu ne mag'zida hush.  
Hayrati har lahza qasdi jon etib,  
Elni oning holiga hayron etib.  
Har kishi ul holdin so'rди xabar,  
Toimadi oning javobidin asar.  
Muncha zohir ayladikim: "So'rmangiz,  
Kuyganim basdur, yaia kuydurmangiz.  
Holatim sharhi emas taqdir ishi,  
Bilmas oni onda to yetmas kishi.  
Menmu erdim, yo rab, ul iqbol ila,  
Vasl bazmida ul istiqbol ila.  
Sharh qilmoq istar ersam gar oni,  
Kimsa ne nav' aylagay bovar oni.  
Hayratim jonimni o'rtar,- naylayin,  
Jismi vayronimni o'rtar - naylayin!  
Vahdati va.sl ichra ul yanglig' murod,  
Ul sifat ma'shuq birla ittihad.  
So'ngra hijrondin bu yanglig' shiddatim,  
Hayrat uzra,-hayrat uzra hayratim.  
Holatedur asru bepoyon ajib,  
Kimsaga qilma muni, yo rab, nasib".

CLXI

Faqr Fano vodiysining adosi  
"Mundin o'tsa o'truga kelmas yano,  
yo'l aro juz vodiya Faqr Fano.  
Yo'q bu vodiya ichra juz xomushluq,  
Gungu kar bo'lmog'lig'u behushluq.  
Chun talotum ko'rguzub bahri amiq,  
Yuz tuman olam bo'lub onda g'ariq.  
Bahrning ko'loki tutqon chog'da avj,  
Kim ayon aylar tuman ming naqsh mavj.  
Dam-badam bu naqshlar topib fano,  
Fosh o'lur ming mavji gunogun yano.  
Yaxshi boqsang: mavjda yo'qtur vujud,  
Bahrin o'zga erur bori nabud.  
Haq vujudi keldi bahri bekaron,  
Mavji oning ofarinisdin ayon.  
Un sakiz ming olam ichra har ne bor,  
Kim qilurlar ahli ma'ni e'tibor.  
Harnekim zohirdurur surat aro,  
Kim bori mar'i bo'lur hay'at aro.  
Arz sathi uzra yuz shakli ajib,  
Shakllarda yuz tuman lavni ajib.  
Farz qil bahreyu yoxud ma'dane,  
Yo'qsa dashte anglag'il yo gulshane.  
Yuz tuman ming lolau gul b"barcha pok,  
To'rg'ayu bulbulni qilg'udek halok.  
Ham aqolimu bilod etkil xayol,  
Ham bihoru ham uyunu ham jibol.  
Ham bular davri dog'i noru havo,  
Bal havou nordin ham mosivo.

Ham bular davri dag'i to'qquz falak,  
Sobitu sayyora ham xayli malak.  
Ne maloyik ulki, yo'q soni oning,  
Balki miqdor ichra poyoni oning.  
Qaysi bir axtarki yo'q ondin haqir,  
Arz jismicha necha topib nazir.  
To'rt unsur, yetti ko'k,; olti jihot -  
Nodiru oliy asosi koinot.  
Barchadin ashrafki ul inson erur,  
Kim kamolida xirad hayron erur.  
Munda sen yoxud avom etgil gumon,  
E xavos angla xayol aylar zamon.  
Gar salotin bo'lsa sohib iqtidor,  
Gar xavoqin angla sohib ixtiyor.  
Gar hakim olimu gar mujtahid,  
Gar parishon qavmdur, gar muttahid.  
Gar valikim, xalqdin akmal dur ul,  
V-ar nabi qil farzkim, mursal dur ul,-  
Barchasin haq zoti mavji bahri bil,  
Ham vujudin mavj yanglyg' onlagil.  
Barchasining naqshi keldi oriyat,  
Foniyu onda baqodin yo'q sifat.  
Bahr tahriki, chun mavj aylab ayon,  
Naqsh muncha zohir aylab har qayon.  
Chun topib taskin bu bahri mavjvar,  
Qolmayin ul mavjlardin hech asar.  
Har kishida bo'lsa oyini xirad,  
Bo'yla bildingkim, azaldin to abad -  
Harnekym qilsang gumon topg'on vujud,  
Budi yo'q, bu nav' erur bori namud.  
G'ayri haqkim qodiri barhaqdur ul,  
Borcha foniy, boqiyi mutlaqdur ul.  
Ham vujud oyini mahkamdur anga,  
Ham baqo rasmi musallamdur anga.  
Haqdin o'zga gar erur har nav' zot,  
Filmasal ichkon esa obi hayot.  
Foniyi mutlaqdurur gar xud baqo,  
Istasang qilmoq kerak o'zni fano".

CLXII

Hikoyat

"Shayx Abulabbos qasobi intisob,  
Kim zamoida qutb edi bejtinob.  
Chun fano vodiysiga qo'ydi qadam,  
O'z vujudin ayladi anda adam.  
Kim maqomi bir kun erdi xonaqoh,  
Bori ashob o'z yerida ro'baroh.  
Bu mahalda bir fuzuli bulajab,  
Xonaqah sahnig'a kirdi beadab.  
Kirgoch-o'q minbar sari ko'rguzdi mayl,  
Dedi:- "Ey bu xonaqah sukkoni xayl,  
Oytqon nuqtamni yaxshi anglangiz,  
Suv to'la ibriq hozir aylangiz.  
Toki istinjo sari aylay shuru',  
So'ngra qilg'aymen tahoratqa ruju".  
Shayxi oliy qadr eshitkoch bu kalom.  
Dedi: "Ibriq olibon aylang xirom!"  
Oldi bir darvesh ibriqi shigarf,  
Suv to'la aylab anga yetkurdi zarf.  
Zarfni sindurdi ul nojins zot,  
Dedikim, keltur yana bir zarf bet.  
Yana bir ibriq kelturdi ravon,  
Oni ham urdiyu sindurdi ravon.  
Sha#x ma'lum aylagach dedi:- "Yurung,  
Ul necha ibriq ushatsa, yetkurung".  
Nechakim yetkurdilar tosh urdi ul,  
Zarflarni sarbasar sindurdi ul.  
Qildilar ollida ajz izhorini  
Kim ushotting zarflarning borini.

Xonaqahda qolmadi zarfu ino,  
Kim sening ollingg'a keltursak yano.  
Dedi: "Gar ibriq yo'qtur qoytingiz,  
Boribon o'z shayxingizg'a oyingiz,  
Kim saqolin hozir etsun munda bot,  
Do topay bu amr bandidin najot".  
Shayx zshirkoch bo'yla bebokona so'z,  
Sekribon qo'ptiyu ul yon qo'ydi yuz.  
Kim zihi xush soatu farxunda hol,  
Kim qachon bir buzkash o'g'lig'a saqol.  
Kim oni yillar chekib yub torag'ay,  
Bu zamon bir muncha ishqqa yorag'ay.  
Kim anga darvesh aylab iltifot,  
Bir kuduratdin chiqorg'oy o'zni bot.  
Shayxqa erdi mahosin poku oq,  
Ovuch ichra olibon qo'ydi oyoq.  
Ul tarafkim g'ofili bebok edi,  
Balki ul majnuni beidrok edi.  
Ko'rgach ul bu nav' oyini fano,  
Harza derga toimadi quvvat yano.  
Shayx ayog'ig'a o'zin tufrog' etib,  
Qo'ydi yuz tufroqqa o'zdin ketib.  
Soliki foniyo anga solib nazar,  
Uzlukidin qo'ymadi rangu asar.  
Bu sifat noqisni takmil ayladi,  
Misni oltun birla tabdil ayladi.  
Rangu naqshu lavndin chiqmay kishi,  
Mumkin ermas mundoq etmaklik ishi.  
Foniyo, mundoq fano haqdin tila,  
To baqo topqaysen ul ifno bila".

CLXIII

Xoja Bahouddin Naqshband suzi fanoyi komil maqomida

Xojai oliy sifoti arjmand,  
Shah bahoulhaq vad-din Naqshband.  
Chun bu iqlim uzra bo'ldi taxtgir,  
Tuzdi yo'qluq kishvari uzra sarir.  
Uz vujudin pok sayri haqshunos,  
Har ne birlakim qilur erdi qiyos.  
Ondin o'zni kam topar erdi base,  
Sarvu guldin o'ylakim xoru xase.  
To ko'rundi ko'ziga. bir jifa kalb,  
Paykaridin poklik oyini salb.  
Chun oning birla tengushturdi o'zin,  
Nola qildi ashkbor aylab ko'zin -  
Dedi: "Ul ahli vafodur, men - emon,  
Uzni oniNg birla emdi teng demon.  
Ul xudovandig'a qilmas juz vafo,  
Lek mendi zohir o'lmay juz jafo".  
Hukm mundoq aylagach sohib nazar,  
Qildi it yo'l birla ollidin guzar.  
Ko'rди topqoch nisbat oyinin tuza,  
It ayog'ining izin tufrog' uza.  
Dedi: "Men ortug' ekanmu yo bu iz?"  
Yana o'znidedi: "K-ey insofsiz,  
Ul vafo ahli ayog'idin nishon,  
Sen vafosizlig' sari domankashon".  
Xatm qildi chun bu ma'nig'a so'zin,  
Er o'pub ul iz uza qo'ydi ko'zin.  
Ahli haq bu nav' etib salbi vujud,  
Budini bu vajah ila aylab nabud,  
Bo'yla oshom ettilar jomi fano,  
Qolmog'ondin so'ng asar o'zdin yano.  
Haq vujudidin baqoye toimayin,  
Jomi vahdatda liqoye toimayin,  
Chun fano xaylig'a doxil bo'ldilar,  
Boqiyi mutlaqqa vosil bo'ldilar.

CLXV

Parvonalar majma'i sham'i haqiqiy sharhida



Bir kecha parvonalar jam' o'ldilar,  
Sa'y birla tolibi sham' o'ldilar.  
Dedilar parni qilib otashfishon:  
- Istoli matlub nuridin nishon.  
Har ne topsoq - oni izhor aylali,  
Sharh etib aslin padidor aylali!"  
Bu so'z oytilg'och biri ochib qanot,  
Sham' tahqiqin qilurg'a bordi bot.  
Bir shabiston ichra ko'rди jam'ni,  
Kim yorutmishlar aroda sham'ni.  
Chun munavvar qildi nuridin ko'zin,  
Yoniboi yoydi olar ichra so'zin.  
Ul der erdi, lek olar toimay xabar,  
Jonlarig'a yo'q edi ondin asar.  
Har necha ravshanroq etti so'zni raf,  
Mustame'lar toimadilar hech naf.  
Chun oning taqriri sud oz ayladi,  
Yona bir parvona parvoz ayladi.  
Sham' bazmig'a yaqin soldi guzar,  
Nurig'a diqqat bila qildi nazar.  
Bu dog'i yoiib necha qildi bayon,  
Bo'lmadi maqsud jam' ichra ayon,  
Yana bir ham ishga so'iy bo'ldi ko'p,  
Sham' boshi girdiga evruldi ko'p.  
Bo'lmadi hosil murod ondin dog'i,  
Toimadi mushkil kushod ondin dog'i.  
Uzgalarga dog'i tushti iztirob,  
Aylab ul maqsud uchun har bir shitob.  
Sham' davrida qanot ko'p urdilar,  
Har bir o'z bolu parin kuydurdilar.  
Har biri kuygancha ondin topti kom,  
Sharhi dushvor erdiyu naqli harom.  
Shu'la sharhin til bila qilmas kishi,  
Kuymaguncha hirqatin bilmas kishi.  
Ul bir ish tahqiqidin topti xabar,  
Kim bo'lub kul, qolmadi ondin asar.  
Shu'lag'a urg'och o'zin bevahmu bok,  
Shu'la bo'ldi o't tushub a'zosi pok.  
Chun tilar maqsud anga bo'ldi ayon,  
Uzga zohir bo'lmadi ondin bayon.  
Chunki maqsud ichra nobud o'ldi ul,  
Ul fanoda ayni maqsud o'ldi ul.  
Chiqmadi ondin yana hargiz nafas,  
Ul haqiqatdin xabar toptiyu bas.  
Boqsa el parvonalarining zotida,  
Kashf o'lur ko'nglida ikki foida.  
Bir bukim, kuymay anga yetmas kushod,  
Bo'lmag'uncha kul topo olmas murod.  
To fano o'ti uza solmas vujud,  
Urtamas ul shu'lada budu nabud.  
Partavi maqsudig'a bo'lmas husul,  
Komira yuzlanmas oyini vusul.  
Yona bir bukim, etib bu nav' barq,  
Onikim o't bahri ichra qildi g'arq,  
Qolmadi chun anda imkoni maqol,  
So'z demak ish sirrida bo'ldi mahol.  
Munda kuymay elga ish ochilmadi,  
Ulki kuydi b" ,kimsa holin bilmadn,  
Foniyo, lofi fano urmog'ni qo'y,  
Vasl esa koming, fano o'tig'a kuy.  
Evrulub sham' o'tig'a parvonavor,  
Uzni tashla shu'lag'a devonavor.  
Qolmog'ondin so'ng vujudungdin nishon,  
Xilqat ichra toru pudungdin nishon,  
Bo'ldi chun koming ravo maqsud aro,  
Bilmasa el bilmasun ul mojarо.

CLXV

Shayx Sufyon Suriyning fanodin so'ngra baqо husulida nukta surgoni

25 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Shayx Suriy qadvai ashobi din,  
Navvarallo suroho xolidin.  
Ma'rifat ichra surar erdi maqol,  
Tolibe ul pirdin qildi savol.  
"Kim biravkim, tengriga tolibdur ul,  
Maqsadig'a tegru ne nav' o'ldi yo'l?"  
Dedi: "Ming manzil masofat onglag'il,  
Borchasida dardu ofat onglag'il.  
Nor ila nur o'rtada yetti tengiz;  
Har birining vus'ati andozasiz.  
Bu tengizlardin qachon qilsang ubur,  
Jazb huti ul zamon aylar zuhur.  
Mohiyekim har qachankim cheksa dam,  
Yutqay ikki olamu xalqini ham.  
Bahri istig'no aro topib maqom,  
Ul muhit atrofida aylar xirom".

CLXVI

Qushlarning Fano vodiysining nihoyatidin baqo mulkidin nishon toimog'lari  
So'z yuziga bo'yla xush tushti niqob,  
Zoyil o'ldi ham savolu ham javob.  
Bo'ldi qushlarga bu so'zdin o'yla hol,  
Kim, xirad oni qila olmas xayol.  
Barchasi fahm ettikim, bu mushkil ish,  
Ul jamoat loyiqi ermas emish.  
Uzlaridin borcha navmid o'ldilar,  
Mubtaloi huzni jovid o'ldilar.  
Uyla topti bo'yla muhlik so'z vujud,  
Kim nihodidin borining chiqti dud.  
Balki chun bu ishga voqif bo'ldilar,  
Vahmdin ul dam ko'pi xud o'ldilar.  
Foniy o'lg'och vahmi jon o'lg'onlari,  
Tutti yo'l hayrat bila qolg'onlari.  
Urdilar yillar qanot tutmay qaror,  
Ul balodin ixtiyor etmay firor.  
Qat' etib ko'p yo'l quyiyo yuqori,  
Chiqqucha o'zluqlaridin toshqori.  
Ulcha ul yo'lda alarg'a berdi yuz,  
Sharhi kelmas yuz tuman til birla tuz.  
Gar sening ham tushsa ollingg'a bu yo'l,  
Chun anga yesang mushohid bo'lg'ay ul.  
Bilgosenkim, ul havokim tuttilar,  
Yo'l balosidin ne qonlar yuttilar.  
Oxirul-amr ul guruhi zordin,  
Ranj tortardin suruk afgordin,  
Ettilar maqsadg'a, ammo asru oz,  
Tan aro yuz so'zu jon ichra gudoz.  
Kim uzun erdi yo'lu ko'p ofati,  
Benihoyat dardu ranju shiddati.  
Ba'zi ul qushlardin o'ldilar halok,  
Ba'zi ittilar bo'lub ko'p dardnok.  
Yuz samumi dardu ranj onda esib,  
Kim musofir rishtai umrin kesib.  
Chun havodis behadu poyon edi,  
Bo'ldilar zoye' nekim imkon edi.  
Oqibat yuz ming tumandin necha qush,  
Kim alarg'a yuz tuman ranj o'ldi tush.  
Urdilar o'ttuz qush ul yerda qanot,  
Tanlarida qolmay oyini hayot.  
Jism aro bir parlari qolmay butun,  
Pora-pora, o'ylakim qoqshol o'tun.  
Tanlari yo'l ranjidan beto'shu tob,  
Jonlari dardu mashaqqatdin xarob.  
Ko'rdilar ul nav'i oliy hazrati,  
Korgohi anda ondoq vus'ati,-  
Kim bo'lub ojiz uqul idrokidin,  
Charx o'ksukroq oning xoshokidin .  
Yog'ib istig'no sahobidin yog'in,  
Ra'd aylab arbada, tashlab choqin.

Kim tushub olamg'a to'foni balo,  
Kul qilib gardunni barqi ibtilo.  
Etti ko'k onda bir ovuch xokcha,  
Sidravu to'bi kelib xoshokcha.  
Borcha o'z holig'a hayron qoldilar,  
Ajzdin zoru parishon qoldilar.  
Ko'rdilarkim onda yuz mehri munir,  
Zarraning yuzdin birichadur haqir.  
Dedilar vohasrato o'z holig'a,  
Ut tushib har qaysi parru bolig'a -  
Kim: "Biz o'ttuz toyiri fosidxayol,  
Yo'l berib xotirg'a savdoi mahol,  
Tortibon yo'l qat'ida ranji azim,  
Jong'a o'lmaq vahmidin har lahza bim.  
Umr o'tib maqsadg'a yetmak oh bu,  
Hol bu ham vus'ati dargoh bu.  
Bizga munda ne hisobu ne vujud!" В Т ”  
Deb bu so'zni, boshlaridin chiqti dud.  
Har nafas navmidlig' yuz ko'rguzub,  
Ul necha ovoraning ko'nglin buzub.  
Bir necha sargashtai ovoraye,  
Toimay o'z mehnatlarig'a choraye.  
Ne ucharg'a yor o'lub quvvatlari,  
Ne qo'narg'a dard aro toqatlari.  
Pardadin nogah izzat chovushi,  
Jilva qildi o'ylakim davlat qushi.  
Ko'rdi ul mabhuti xayli xastani,  
Yuz baliyat torig'a vobastani.  
So'rg'oli qildi alar holini mayl,  
Dedi: "Oyo ne jamoattur bu xayl?  
Kim erurlar ming balora muhtalo,  
Ul balodin bahra toimay, g'ayri lo"  
Besaru somonu sargardon bari,  
Qadrda tufrror ila yakson bari.  
Yo'q haqoratdin olarda o'zga hech,  
Ul haqoratdin ko'runmay ko'zga hech.  
Dedilarkim: "Biz guruhi xoru zor,  
Harzakoruojizu bee'tibor.  
yo'lda umre jon chekib, shoh istabon,  
Ranj tortib biz bu dargoh istabon.  
Shohsiz erduk bag'oyat ko'p sipoh,  
Ne sipoh o'lg'ayki yo'qtur onda shoh.  
Umrlar yo'lda mashaqqat tortibon,  
Yuz tuman turluk mazallat tortibon.  
Necha yuz ming tobe'u xaylu hashar,  
Kim oning sonida ojizdur bashar,  
Bo'ldilar zoye', qo'yub bu yo'lda yuz,  
To bu dargahga yetishtuk biz o'tuz.  
To magar Simurg' bo'lg'ay shohimiz,  
Borcha sharu xayrdin ogohimiz.  
Shohg'a bo'lsa bu ma'ni dilpazir,  
Banda bo'lg'ay bir necha zoru asir".  
Dedi ul chovushki: "Ey xayli harif,  
Bexiradlig' birla bo'lg'on muttasif.  
Sizkim o'lg'oysiz necha oshuftahol,  
Kim dumog'ingizg'a tushkay bu xayol,  
Qoysi til birla qilursiz shahni zikr,  
Ko'nglungizga yo'l nechuk topqoy bu fikr.  
Siz guruhe hech kamroq hechdin,  
Shod bu andeshai purpechdin.  
Hechlik birla tahavvur aylagan,  
Uzni mavjude tasavvur aylagan.  
Sizga ne son, ne hisobu ne vujud,  
Budlug' tUhmat qilib ammo nabud.  
Ko'nglungizda sarbasar fosid xayol,  
Muddaongiz barchasi - amri mahol.  
Borgohidur bukim yuz ming quyosh,  
Zarra chog'lig' aylay olmas o'zni fosh,

Mundakim yuz ming tuman pili damo",  
Bor hamonu, bir o'luk pashsha hamon.  
Sizga onda ne vujudu ne adam,  
Bal vujudingiz adamdin dog'i kam.  
Demongiz hashvu ravonroq qoytingiz,  
So'z agar bor ersa, yo'lda oyingiz!"  
Bu takallumdin alardin bordi hush,  
Za'f aylab tillari bo'ldi xamush.-  
Barcha filhol o'lgali yovushtilar,  
Ya'su hirmon o'ti ichra tushtilar.  
Dedilar: "B" "Mehnatlarimizdin darig'!  
Tortqon shiddatlarimizdin darig'!  
Shohg'a mundoqkim erur oliy janob,  
Ne ko'rungay bir necha bizdek yabob.  
Hayf muncha sa'y ila ummidimiz!  
Orzui davlati jovidimiz!"  
Kim bori hirmon bila bo'ldi badal,  
Hasratu armon bila bo'ldi badal.  
"Bor ekanmu biz kibi mahzun guruh,  
Orzuyu say'din mag'bun guruh!"  
CLXVII

Qushlarg'a fano navmidlig'ida Hudhudnina irshodidin quvvat hosil bo'lg'oni  
Dedi: Hudhud:- "K-ey suruk bechora xayl,  
Mulku xonumonidin ovora xayl.  
Bo'lmangiz navmid shoh altofidin,  
Kim karam birdur oning avsofidin.  
Sa'b esa komi visolin toimog'i,  
Xushturur savdosida o'lmak dog'i.  
Bizga bu iqbol chunkim berdi dast,  
Qim oning d-argohida toptuq nishast.  
Bu saodat ham erur oliy maqom,  
Kim oning ishqida o'lgaybiz tamom!"  
Borchasi bedillig' aylab oshk'or,  
Dedilar Hudhudqa:- "K-ey hikmatshior.  
Bu balolar ichrakim bo'lduk xumul,  
Bordurur amringni qilg'ondin qabul.  
Qoydakim urduk qanot-oyrilmaduk,  
Har ne amr etting - taxalluf qilmaduk.  
Vasl chog'i yetti anduhi firoq,  
Har ne der erding yiroq ermish, yiroq".  
Dedi Hudhud: "Qilmongiz afsurdaliq,  
Asru zohir etmangiz ozurdaliq.  
Biz bu yo'lg'a ondokim azm ayladuk,  
Yuz baliyat chekmokin jazm ayladuk.  
Bu azimatdin g'araz xud shoh edi,  
Ham yana maqsudi bu dargoh edi.  
Chun ki maqsudg'a yetibsiz bu zamon,  
Komdin qilmong yiroq o'zni gumon.  
Oshiqekim, ishqida bo'lg'ay kamol,  
Teng durur ollida hijronu visol.  
Chun rizosi yorning matlub erur,  
Har nekim ul istar - ul marg'ub erur.  
Vaslig'a gar toimag'aysiz dastras,  
Siz jamoatqa emasmu yodi bas?  
Yodi birla har kishikim bersa jon#  
Bordur ul o'lmoq hayoti jovidon".  
CLXVIII

#### Hikoyat

Dasht aro Majnunni ko'rdi bir kishi,  
Qim hamisha so'z demak erdi ishi.  
So'rdi: "Kim birla surarsen bu maqol?"  
Dedi: "Layli birla, ey farxunda fol".  
Dedi: "Ondin to sangadur xeyli yo'l!"  
Dedi: "Ey g'ofil, erur jonimda ul.  
Ulki oning zikridur jonimda qut,  
Yo'l yiroq bo'lg'ondin o'lg'oymu unut!"  
Kimki ishqig'a kamol erodidur,  
Onga ma'shuqi vujudi yoridur.

Sizda ham gar ishqdin bor ersa lof,  
Aysh eting gar kelsa ondin durdu sof".  
CLXIX

Qushlarning fano husulidin baqo vusulig'a yetkoni  
Ul musofirlar kezyb ko'p bahru bar,  
Qilmish erdilar chu maqsadni mafar.  
Io'l yugurmoqdin tunu kun hormayin,  
Har balokim kelsa, yuz qaytormayin.  
Etmish erdilar chu ul matlubqa,  
Hojibi ro' ul suruk mag'lubqa.  
Nechakim surdi jaloliyat so'zin,  
Solmadi ul benavo qushlar o'zin.  
Garchi ba'zi qildi bedilliq ayon,  
Hudhud irshodin qilib sharhu bayon.  
Oni qo'ymay ya'su bedilliq aro,  
Surdi oncha va'z birla mojaro.  
Kim topib ul nuktalardin jon yana,  
Bo'ldi mushkil ish anga oson yana.  
Chun alarg'a sidqu ixlos o'ldi yor,  
Bu ikilikning talabda daxli bor.  
Gar jaloliyatdin ul xayli zalil,  
G'am yemasga surdi ko'p Hudhud dalil.  
Ham alarda bor edi mardonaliq,  
Hodii komilda ham farzonaliq.  
Sidqi ixlos ichra ikkinchi fano  
Yorni qildi alarg'a oshno.  
Vasl bog'idin jamoliyat yeli,  
N Masiho qudsi anfosi dili.  
Estiyu har pardakim erdi niqob,  
Ochti tush-tushdin borisin behijob.  
Nuru zulmatlar hijobi har taraf -  
Kim bor erdi, borcha bo'ldi bartaraf.  
Vasl bog'ida guli ayshu murod,  
Oncha topti jon nasimidin kushod -  
Kim ketib xotirlaridin ul futur,  
Yuzlanib vasl ichra bu komu surur.  
Har gul ul gulshanda bir ko'zgu edi,  
Kim qayon boqsa - alar o'tru edi.  
Oncha ondin boshqa ham nuru safo,  
Bor edi ham oshkoru ham xafo.  
Kim nazar qilg'on kibi ko'zguda el,  
Eki boqqay sofu ravshan suvda el.  
Ko'runar erdi nazarda mo'-bamo',  
Aks ko'rguzgon kibi ko'zguyu su.  
Chun ul o'ttuz qushqa bu yerda xayol,  
Muncha ko'rgandin o'kush ranju malol.  
Kim magar Simurg' ko'rguzgay liqo,  
Bu fanolardin yetishkay ul baqo.  
Ko'rdilar o'zni qayonkim tushti ko'z,  
Olloh-olloh ne ajoyibdur bu so'z.  
Kim qilib Simurg' o'ttuz qush havas,  
Uzlarin ko'rdilar ul si murg'u bas.  
Munda zohir bo'ldi sirri "man araf",  
Kim ko'rubtur gavhar o'lmog'lig' sadaf.  
Ey ko'ngul, bu nuktadur qushlar tili,  
Ramzu imo mulkiga tushlar tili.  
Garchi bu so'zda ayondur ta'miya,  
Kim riyozatdinki topti tasfiya,  
Chun riyozat raf' etib ruhoniya,  
Salb bo'lg'och kimsadin nafsoniyat.  
Qolmag'ay ruhoniya'din o'zga hech,  
Sen taxallufdin bu ma'ni ichra kech.  
Bordur inson zotida oncha sharaf,  
Kim yamon axloqin etsa bartaraf.  
Bo'lmasa fir'avnlig'ing payravi,  
Qolmas ondin juz sifoti musavi.  
Yo sharaf ganjiga topib ahllik,  
Salb qilsa siyrati Bu Jahllik.

Shon anga bo'lur Habibullohdek,  
Bud ila nobuddin ogohdek.  
Kim qilib me'roji vahdatqa guzar,  
Li ma ollo sirridin bergay xabar.  
Vasl nuridin ko'z ul yanglig' yorur,  
Kim arozin menliku senlik borur.  
Haq vujud bahri mavj etqay ayon,  
Mavj naqshidin tengizga ne ziyon.  
Suv vujudidin tengiz bo'ldi tengiz,  
Bo'lsa ul gar mavjluq, gar mavjsiz,  
Suvdin ayru mavjqa yo'qtur vujud,  
Bahr iladur mavjqa budu nabud.  
Munda gar yaxshi taxayyul aylasang,  
Yoki ish sirrin taammul aylasang,  
Muttasif bo'lsang sifotilloh ila,  
Jazm etarsen xotiri ogoh ila.  
Kim sen-o'qsen harnekim maqsud erur,  
Sendin o'zga yo'q, nekim mavjud erur.  
Zotning ijmolig'a tafsilsen,  
- Ham vujud ishkolig'a ta'vilsen.  
O'z vujudunga tafakkur aylagil,  
arne istarsen o'zungdin istagil.  
Turfa qushsen ravza naxlistonidin,  
Pok toyirsen sharaf bo'stonidin.  
Lek Simurg' istagan ul jam'i tayr,  
Kim suluk ichra riyozat birla sayr -  
Aylabon chun o'zni qobil qildilar,  
Ul talabdin vasl hosil qildilar.  
Senda ham bilquvva ul mavjud erur,  
Fe'lga kelsa davo maqsud erur.  
Qobil etmay o'zni gar qil avji so'z.  
Zohir etsang dor ila solmoqqa tuz.  
Kimki bu ma'nidin ogoh o'ldi bil,  
Kim kesildi onga so'z ayturg'a til.  
Onglokim so'z o'zga, ma'ni o'zgardur,  
Ma'ni ongmoss, shog'il ulkim so'zgardur.  
Bo'yla ma'nikim manga bo'ldi ayon,  
Ayladim qushlar tnli birla bayon,  
Kim takallum onda shirkat toimag'ay,  
Bikri ma'nining uzorin yoimag'ay.  
Qush tili bilgan so'zum fahm aylagay,  
Fahm etardin ham base vahm aylagay.  
Lek ziyrak qush chu bildi bu maqol,  
Onglag'aykim nedurur bu so'zda hol.  
Barcha so'zlar mushkilidur bu hadis,  
Bezabonlarning tilidur bu hadis.  
Shart bukim, onglag'on sharh etmagay,  
To tilidin boshqa ofat yetmagay.  
Men deb istig'for qildim, yo iloh,  
Oytmas so'zdin sanga qildim panoh.  
O'z qoshimdin solmadim bu nav' tarh,  
Ayladim Attor asrorini sharh.  
Ofatimni nuktadin sen asrog'il,  
Kimga payravmen - nazora aylagil.  
Men g'alat qilsam anga yo'qtur g'alat,  
Kim kamol avroqig'a ko'p surdy xat.  
So'zda tab'im gar g'alatqa qildi maylB§  
Hodiyi komil so'ziga qil tufayl.  
Sendin oytib men onga payrav bo'lub,  
Avf qil jurmum, o'zung uzrum qo'lub.  
CLXX

O'z adosi qusuri uzriga tamsil  
Bir parishon tab' majnun bor edi,  
Kim birov savdosidin ko'p zor edi.  
Bor edi manzuri davron ofati,  
Ishva birla ins ila jon ofati.  
Husn aro huru pari mag'lub anga,  
Mehr ila oy ko'p ko'runmay xub anga.

Husn aro olamda g'avg'osi oning,  
Shahru kishvarda alolosi oning.  
Lutfi husni garchi nomaqdur edi,  
Ikki ish birla vale mashhur edi.  
Bir kamoli donishu diqqat aro,  
Bir jaf o aylar zamon shiddat aro,  
Ishq aro ul oshiqi Majnun nihod,  
Bir kun aylar erdi ma'shuqini yod.  
Orazin gul der edi, qaddini sarv,  
Hay'atin tovusu raftorin - tazarv.  
Bo'yla holatda yetishti mohvash,  
Harnekim devona aytur erdi xo'sh,-  
Borin eshitti kamin aylab turub,  
So'ngra oning boshiga keldi yurub.  
Dedi: "Ta'rifing kinoyatdur manga,  
Or ondin benihoyatdur manga.  
Qomatimkim sarv deb surdung kalom,  
Sarvg'a qaddim kibi bormu xirom.  
Orazim gul deb qilding elga fosh,  
Gulda bormu yuz balolig' ko'zu qosh.  
Hay'atim tovus deb qilding xurush,  
Qoyda tovus eldin. olur aqlu hush.  
Chun tazarv etting xiromig'a laqab,  
Qoy tazarv el qatlig'a bo'lmish sabab?!"  
Qildi chun diqqat bila mahvash xitob,  
Ojiz o'ldi bedil ayturdin javob.  
Dedi: "Sahv aylabmenu sharmandamen,  
Lek vasfing derga mujrim bandamen!"  
Qildi mah paykar g'azabkim ushbu dam,  
"Dahrdin aylay vujudungni adamP-  
Erga tushti yolborib devona zor,  
"K-ey pariya hurdin husningga or.  
Neki men dedim muhabbatdin edi,  
Barcha ixlosu muvaddatdin edi.  
Yo'q edi onda shikoyatdin asar,  
Ta'nu tashne'u kinoyatdin asar.  
Lek taqsir ettim erkin vasf aro,  
Lutf erur gar so'rmasang bu mojar o.  
Haml nodonlikka-o'q qilsang borin,  
Jahlu bilmaslikdin-o'q bilsang borin,  
Chun uyat bu telbani zor o'lturur,  
Sen ham o'lturmak senga zahmatdurur".  
Telba qoyil bo'lg'och o'z nuqsunidin,  
Lutf etib kechti parivash qonidin.

CLXXI

Hikoyat

Xoja Abdullo Ansoriy dedi,  
Ulki bu yo'l ahlig'a hodi edi:  
"Kim kishi soz aylabon ohangi rud,  
Tuzsa ul ohang aro lahni surud,  
Lek bu rudu surudid in murod  
Bo'lsa tengri yodi, ey pok e'tiqod.  
Yaxshiroqkim g'aflat ohangin tuzub,  
Uqug'oy mushaf tilovat ko'rguzub.  
Bo'lsa lahnu nag'mada ogohlig',  
Behki, toat vaqtida gumrohlig'".

CLXXII

O'z taqsirlarig'a afv istid'osi va jurmlarig'a g'ufron iltimosi  
Ey adamdin borchag'a xalloqi jud,  
Bori jud ahlig'a fayyozi vujud.  
Lutfu ehsoning'g'a yo'q poyonu had,  
Baxshishu ehsoning'a sonu adad.  
Har nekim vasfingda tahrir aylagum,  
Sehr ag'ar qilgumki, taqsir aylagum.  
Men ne bo'lgumkim, agar allomalar -  
Sursa yillar vasfing ichra xomalar,  
Bo'lsalar insof sori munsarif,  
Ajzg'a bo'lmoq keraktur mo'tarif.

Foniyi devonayi oshuftaxo'y  
Necha so'z gar sendin etti guftugo'y,  
Sahvu taqsirin karamdin afv qil,  
Nomai a'molidin mahv aylagil.  
Manga bu baskim, nekim surdum qalam,  
SenDin ettim, yo'qki g'ayringdin raqam.  
Ortuq ar o'ksuk dedim, sendin dedim,  
Chyn agar o'truk dedim, sendin dedim.  
Ulcha asroring manga erdi ayon,  
Ayladim qushlar tili birla bayon.  
Qush -gili birla bu dam yolbormog'im,  
Nim bismil qushdek o'zdin bormog'ym,-  
Borcha ondindurki, bo'lmas barcha qush -  
Nuktay ranginu go'yolikka tush.  
Lutf ila bulbulg'a ming daston erur,  
Zog' xorij savti bepoyon erur.  
Bas bori qushning navosi xush emas,  
Barcha toyir nag'masi dilcash emas.  
Chun alar ilhonidin surdum kalom,  
Barchaning lahniga bo'lmas bir maqom.  
To'tiyu shorak agar notiqdurur,  
Har biriga o'zga bir mantiqdurur.  
Naqlida oning tafovut bo'lg'usi,  
Bir iloh o'lsa, biri but bo'lg'usi.  
Birda shak bo'lsa, birisida yaqin,  
Birida kufr o'lsa, yana birda din,  
Kufru din birla chu yo'q Foniya ish,  
Chunki har ne ul demish sendin demish.  
Sen oning sahvig'a bo'lg'il pardapo'sh,  
To fano bazmida bo'lg'ay jur'ano'sh.  
Chun nasibi aylading jomi fano,  
Bermak iqboli baqosin bil yano.  
CLXXIII

Shayx avsofiyu o'zining anga payravlig'da ittisofi  
Foniyo, solding yana tarhi ajab,  
Aylading qushlar tilin sharhi ajab.  
Bir Sulaymoni nabi erdiki ul,  
Topib erdi qushlar alfozig'a yo'l.  
Ondin Osaf ongladi ta'lim ila,  
Kimsaga bildurmadi tafhim ila.  
Ul ikovdin o'zgalarga yetmadi,  
Kimsaga chun yetmadi, fahm etmadi.  
To necha ming yil sipehri tezgard  
Jahdu jid birla bo'lub getinavard,  
Zohir etti bir humoyunfol qush,  
Tezsayru teznutqu tezhush.  
Qoysi qush - Qofi fano anqosi ul,  
Jumlai qushlar tili donosi ul.  
Murshidi atvoru qutbi avliyo,  
Ko'nglida sham'i hidoyatdin ziyo.  
Kashfi asrori haqoyiqda farid,  
Nutqidin ahli haqiqat mustafid.  
Ahli irfon soliki atvori ul,  
Ma'rifat bozorining Attori ul.  
Kim bu gulshan ichra chun qildi zuhur,  
Go'yi ondin nutq o'rgondi tuyur.  
Qush tili birla takallum qilmog'i,  
Ortuq Osafdin, Sulaymondin dog'i.  
Kim alar gar ongladilar bu maqol,  
Lekin elga qilmadi naf' intiqol.  
Haq munung nutqin chu go'yo ayladi,  
"Mantiqut-tayr" oshkoro ayladi.  
Bu til izohin kamohiy aylabon,  
Sharhi asrori ilohiy aylabon.  
Nukta deb anjom ila og'ozdin,  
Oncha gavhar sochti ganji rozdin,-  
Kim zamon jaybin to'la qildi guhar,  
Toptilar ondin zamon ahli samar.



Ganjdin chunkim ochildi bu tilism,  
Har gadog'a ul guhardin yetti qism.  
Naqshini om ayladi xurshiddek,  
Jomidin urdi salo Jamshiddek.  
Har kim erdi tashnalab "B" no'sh ayladi,  
So'z demakdin tilni xomush ayladi.  
Qush tili birla bayon aylab kalom,  
To'tii go'yodek o'ldi xosu om.  
Forsiy oyini ulus fahm ettilar,  
Barcha maxfiy diqqatig'a yettilar.  
G'ayr xayli soda atroki faqir  
Kim alarda komdur idroki kasir.  
Qoldilar mahrum bu iqboldin,  
Qush lisoni birla qilu qoldin.  
Qushdin ermas xoli ar ko'pning eli,  
Lek fahm o'lmas biriga qush tili.  
Chun manga Attor do'konidin ish,  
Shakkaru qand olmoq erdi yozu qish.  
Balki to'ti yanglig' ul do'konda fan,  
Bor edi bo'lmoq manga shakkarshikan.  
Qush tili birla manga nekim xitob -  
Qilsa to'tidek berur erdim javob.  
Balki qudsi ruhining go'yo qushi,  
Arsh bog'idin kelib ko'nglum tushi.  
Qush tili mushkillarin irshod etib,  
Ul takallumda meni ustod etib.  
Chunki toptim ul kalom ichra kamol,  
Turk alfozi bila surdum maqol.  
Nag'malar turkona soz ettim o'kush,  
Mastlig'din o'ylakim xushnag'ma qush.  
Qaysi qush, bulbulki ming dostoni bor,  
Har bir ul dastonda bir afg'oni bor.  
Lek ul dostonlari gul shavqidin,  
Nolau afg'onlari gul shavqidin.  
Men-men ul bulbulki ming afg'on aro,  
Har fig'on lahnini bir doston aro,-  
Ushbu gulshan ichra soldim mastvor,  
Nag'maning ohangi andoq ustuvor,-  
Kim anga har xorij alhonlik tuyur,  
Cheksa afg'on - toimog'oy ondin qusur.  
Shayx ruhidin yetishti bu madad,  
Kim bu bulbul lahni bo'ldi beadam.  
Bu tanosibqa nazar solsa kishi,  
Ko'p anga o'xshosh topar qaqnus ishi.  
CLXXIV  
O'zining Shayx ruhi madadidin anga tatabbu' qilg'ong'a qaqnus timsoli

Bor emish qaqnus degan bir turfa tayr,  
Hind mulkida anga oromu sayr.  
Shakli matbu'u tavono paykari,  
Uzga naqshu rang birla har pari.  
Bulajab hay'at bila minqor anga,  
Suqbalar minqor aro bisyor anga.  
Chun chekib dilkash navoyi jonfizo,  
Fahm o'lub har suqbasidin bir navo.  
Suqbalardin har qachon qilsa xurush,  
Aylabon oni eshitkon tarki hush.  
Jufti bo'lmas hech qush, payvandi ham,  
Hech tayr o'lmas oning monandi ham.  
Beshayekim ul nishiman aylamish,  
Bir yig'och boshinki ma'man aylamish.  
Qildi Fisog'urs ul yerdin guzar,  
Unlari keldi qulog'ig'a magar.  
Muxtalif topib sadoi shevanin,  
Qildi ondin vaz' musiqi fanin.  
Beshada umri bo'lur ermish uzun,  
Umrida shug'li oning yig'moq o'tun.

Ul o'tundin, xohi o'l, xohi quruq,  
Chunki bo'ldi xirmani behad Uluq.  
Umri poyonida ul maskan uza -  
Necha yil jam' aylagan xirman uza -  
Tortar ermish nag'ma tayri xush navo,  
Bas hazin ohang ila dilcash navo.  
Ul sifatkim ham tuyuru ham vuhush,  
Jam' o'lur ermish eshitkach ul xurush.  
Shevanidin ul guruhi dardnok,  
Za'f aylab ko'p bo'lur ermish halok.  
Chun navosig'a yetishti intiho,  
So'ngra tortib bir ajib o'tluq navo,  
Solur ermish ul uluq xirmanga o't, >  
Sokin o'lg'on manzilu maskaiga o't.  
Ut alam tortar emish aflokka,  
Barq tushkandek xasu xoshokka.  
Ul o'tun yong'ondek ul qush ham yonib,  
Parlari yaprog'lardek o'rtonib.  
Ham o'zi, ham ul o'tunlar kul bo'lub,  
Yuz tuman juzv ul kuyordin kul bo'lub.  
Chunki ul kullar o'kuldi tog'cha,  
Maxfiy ermish kulda bir qaqyus bacha.  
Tebranib kuldin chiqib taskin ila,  
Par chiqorib ziynatu oyin ila.  
Chun havo aylab ko'rub ul beshani,  
Jazm etib o'tun yig'or andeshani.  
Umrida ul dog'i jam' aylab o'tun,  
Ul ish asnosida tortib dilcash un.  
Chun anga ham yesa poyonig'a yosh,  
Ul dog'i aylab ato qilg'onni fosh.  
Shayx go'yo keldi ul avvalgi tayr,  
Kim navo ichra qilib umrida sayr.  
Chekti oncha lahn aro dilcash navo,  
Kim simoin vahshu tayr aylab havo.  
Barcha ul muhlik navodin o'ldilar,  
Xirmanu sohib kibi kul bo'ldilar.  
Ulki ul kullardin axgardek chiqib,  
Balki axgardin samandardek chiqib.  
Har nekim avvalg'i qushqa erdi shon,  
Zohir o'ldi munda ham ondin nishon,  
Bu dog'i degancha nima jam' etib, .  
Chun muning umrig'a ham poyon yetib.  
Gulshani davron aro har nav' qush,  
Yo'qki, yolg'uz tayru bas bilkim vuhush,  
Yuz navo zohir qilib minqoridin {  
Barcha haqning yoshurun asroridin.  
Uziga, xirmanga dog'i o't urub,  
Ham o'zin, ham o'zgalarni kuydurub.  
Men demonkim,' ul otodur, men o'g'ul,  
Ul - shahi oliy sifot, men banda-qul.  
Kim bu o'tqa ul kuyub avval nafas,  
Barcha olamga o't ul soldiyu bas.  
So'ngra ondin kimsa toimay menchaso'z,  
Bo'yla muhriq shu'lai getifuruz.  
Qush tilidin shu'lalar zohir qilib,  
Ham o'zum, ham el kul o'lmog'ni bilib.  
Har nekim ko'rdi otomdin ro'zgor,  
Ham oni bo'ldi manga omo'zgor.  
Urtodim olam elini, o'zni ham,  
Qush tilidin o'zga qilmay so'zni ham.  
Budur umiddimki, bu so'zi fano  
Barcha kuygonga baqo bergay yano".

CLXXV

Talab tariyqi adosida munojot  
Ey xaloyiq, tolibu mutlubsen,  
Ham muhabbat ahlig'a mahbubsen.  
Ikki dunyodin bori toliblaring,

G'ayri sendin mujtanib rog'iblarining.  
Sendin oyru gar malakdur, gar pari,  
Tolib o'lmoqqa gari, qilmas gari.  
Jannatu kavsar va gar to'biyu hur,  
Istamak sensiz talabding qusur.  
Jonu ko'nglumni o'zungga tolib et,  
Dard ila ishqingga shavqum g'olib et.  
Ham talab zavqini vosil qil manga,  
Ham tilab toimog'ni hosil qil manga.  
Mosivallo xotirimdin salb qil,  
Onda zikringni huzuri qalb qil.

CLXXVI

Tamsil

Ka'ba azmi qildibir tolib murid,  
Ko'rda Bistom ichra oni Boyazid.  
Shayxqa chunkim musharraf bo'ldi ul,  
Utti dog'i, Ka'ba sari tutti yo'l.  
Chun muyassar bo'ldi haj ul xomg'a,  
Qoytibon yetti yana Bistomg'a.  
Soliki fozil qilib arzi niyoz,  
Bo'ldi murshid xizmatiga sarfarozi.  
Shayx oni ko'rgach dedi: "K-ey rahnavard,  
Vasl istab vodiya dargahnavard,  
Bir nishon de bizga baytillohding",  
Bu so'z o'lg'och murshidi ogohding,  
Dedi: "Ko'rgon uy base oliy edi,  
Uy iyosidin vale xoli edi". ,  
Dedi ul hojig'a shayxi boxabar,  
"K-ey, talabdin toimog'on aslo xabar.  
Uyga sohib yo'lda erdi hamrahing,  
Har qadam urg'on yo'lungdin ogahing.  
Uyiga yetkurgon ul erdi seni,  
Eltibon kelturgon ul erdi seni.  
Senda yo'q erdi bu davlatdin shuur,  
Tolib erding, lek sa'yingda qusur!"  
Bu talabda, yo rab, et komil meni,  
Qilmog'il matlubdin g'ofil meni.  
Istarimda kim qilur hamrohlig',  
Bergil ul hamrohdin ogohlig'.

CLXXVII

Ishq tariqi adosida munojot  
Ey ko'ngulni ishqidin ravshan qilib,  
Hajr xoristonini gulshan qilib,  
Ishqing o'tidin yoruq oyu quyosh,  
Kim bo'lub tun-kun olordindur fosh.  
Barqi ishqing solibon jonlarga o'rt,  
Shu'lasi obodu vayronlarga o'rt.  
Axtaredur ishqing asru tobnok  
Gavharedur sirri ishqing asru pok.  
Jonima yetkur ul axtar birla nur,  
Ko'ngluma solgil bu gavhardin surur.  
Bodai ishqingdin et ko'nglumni mast,  
Lek ul yanglig'ki bo'lg'ay mayparast,  
Ayla bu may birla loya'qil meni,  
Aql chun raf' o'ldi, qil vosil meni.

CLXXVIII

Hikoyat

Qaysi Omirni chu ishq etti zabun,  
Zoyil etti ishq aro aqlin junun.  
Uyla Layli ishqida mag'lub edi,  
Tolib ul go'yovu, bu - matlub edi.  
Uyla mustag'raq edi ul ishq aro,  
Laylii mutlaq edi ul ishq aro.  
Kim birov bir kun dedi: "rting nedur?"  
Dedi: "Layli!" Dedi: "Isboting nedur?"  
Dedi: "Ul kim - Layli o'ldi zot onga,  
Hojat ermas aylamak isbot anga.  
Gar sanga shakdur, manga budur yaqin!"

Bo'yla oshiqliqqa yuz ming ofarin  
Ishq o'ti so'zig'a mahruq et meni,  
Vahdati ishq ichra ma'shuq et meni.  
Onda istig'roqi ishq et qismatim,  
Kim uzulgay o'zlugumdin nisbatim.  
Ishq aro Foniyni nobud aylagil,  
So'ngra ishqing birla mavjud aylagil.

CLXXIX

Ma'rifat tariqi adosida munojot  
Ey qilib insonni koni ma'rifat,  
Ko'nglini aylab jahoni ma'rifat.  
Ma'rifat harkimgakim qism aylabon,  
Dahr aro orif ango ism aylabon.  
Kimni aylab ma'rifatqa muttayeif,  
Aylabon ul xayl holin muxtalif.  
Har kishi sayrin kamolicha qilib,  
Qurbin oning hasbi holicha qilib.  
Bu biyobon yo'lin aylab beaded,  
Uylakim yo'q rahraviga haddu ad.  
Ma'rifatda, yo rab, ul yo'lkim ango,  
Solikekim kirsya yetkurgay sango.  
Foniyi ovorani ul yo'lg'a sol,  
Qat' qilg'och yo'l, nasib etkil visol.

CLXXX

Tamsil

Solike qildi guzar bir shohg'a,  
Shah boqib ul soliki ogohg'a.  
Iltimos ettiki: "Ultur bir nafas,  
To qilay hozir nekim qilsang havas".  
Dedi solik: "Tengrini to tonidim,  
Mutlaq oning g'ayridin ma'yus edim.  
Ne kerak bo'lgay bu foniylar aro,  
Kim gari qilg'ay tilarga g'ayr aro.  
Gar keraklik bo'lsa dog'i haq berur,  
Bas sanga bu ishdakim muhtoj erur.  
V rab, ul solikka bo'lg'ondek sifat,  
Ayla Foniylar nasib ul ma'rifat.  
Jahlu javru zulmidin g'avrig'a yet,  
Ham o'ziga, ham o'zungga orif et.

CLXXXI

Istig'no tariqi adosida munojot  
Ey janobing yuz falakdin ham vase',  
Ostoning ming Zuhaldin ham rafe'.  
Charxu anjumg'a qoshingda ne vujud,  
Gar olar budi tamom o'lsa nabud.  
Olam o'lsa nafiyo isbotingda,  
Bir.sari mo' yo'q tafovut zotingda.  
Bu ne yanglig' hazrati volo bo'lur,  
Olloh-olloh, bu ne istig'no bo'lur.  
Hazratingda mo'ri langu sheri g'ob -  
Bo'lsa yoxud bo'lmasa - birdur hisob.  
Sheri g'ob ermon, erurmen mo'ri lang,  
Balki mendin onga ham yuz oru nang.  
G'ayrdin bu zorni mustag'ni et,  
Elga muhtoj etma, faryodimg'a yet.

CLXXXII

Tamsil

Qildi chun Namrud sozi manjaniq,  
Haq Xalilin o'tqa aylarga hariq.  
Tog'-tog' o'tunga o'tlar urdilar,  
Shu'lasin aflokka yetkurdilar.  
Otqoch o't sori Xalilullohni,  
Ishq ko'yida dalilullohni,  
Hukm bo'ldikim, yetishti Jabrail,  
Utqa yetkon chog'da dedi: "Ey Xalil!  
Oytqilkim, ehtiyojning negodur?  
Lutfu ehsondin mizojing negodur?  
Neki sen dersen muhayyo ayloli,

Ulcha koming oshkoro ayloli?"  
Dedi ulkim: "Ut manga ro'zi qilur,  
Ehtiyojim ne ekonni ul bilur.  
Yo'q sanga xud ehtiyojim bu nafas,  
Toki zohir aylagaymen multamas".  
Borcha holimda o'zung muhtoji qil,  
Eldin istig'no nasibim aylagil.

CLXXXIII

Hayrat tariqi adosida munojot  
Ey janobingda xirad hayron bo'lub,  
Vodiyi hayratda sargardon bo'lub.  
Har ne sendin o'zgardur, hayron sanga,  
Hayratobod ichra sargardon sanga.  
Aqli kull hayratda zoting bobida,  
Zot yo'q har bir sifoting bobida,  
Korgohing ichra har bir rishta tob  
Aqlning bo'ynig'a hayratdan tanob.  
Ahli ilmu aql sun'ungda zabun,  
Har birining hayrati hardam fuzun.  
Ushbu hayrat maslakida tut qo'lum,  
Bu tahayyur ichra ko'rguzgil yo'lum ,  
Hayrat ichra qo'yma sargardon meni,  
Tort o'z vasling sori oson meni.

CLXXXIV

Tamsil

Bor edi bir bedili zoru haqir,  
Bo'ldi bir badmehr ishqig'a asir.  
Necha o'rtonsa bu g'amdin ul g'arib,  
Davlati didor emas erdi nasib.  
Utkorur erdi g'ami hijron bila,  
Vasl yodidin base armon bila.  
Haddin o'tti chunki ranju zorlig',  
Tori o'ldi jismig'a bemorlig'.  
Ko'ngli chun ma'shuqdin navmid edi,  
Jonida anduh o'ti jovid edi.  
Der edi: "Yo rab, manga budur murod -  
Kim o'shul navrasta sarvi hurzod -  
Etsa boshimg'a, solib ul yuzga ko'z,  
Oysam ko'nglum g'amidin ikki so'z!"  
Xalq holig'a tarahhum aylabon,  
Dilbarig'a ko'p tazallum aylabon.  
Oshiqi bedil sari kelturdilar,  
Umrin oning boshig'a yetkurdilar.  
Nozanin chun keldi aylab turktoz,  
Aylabon ul xastag'a zohir niyoz.  
Dedikim: "Oyt ulcha bor ko'nglungda so'z!"  
Ul tikib yuziga hayrat birla ko'z,-  
Ham tilin hayronlig'i lol ayladi,  
Ham tanin ul za'f behol ayladi.  
Hayrat etti zoyil ondin aqlu hush,  
Dardu holin der kishi bo'ldi xamo'sh.  
Hushig'a chun keldi, ketmish erdi yor,  
gGushti sihhatsiz tanig'a iztiror.  
Hayratidin ul za'ifi notavon  
Bir so'z oyto olmayin topshurdi jon.

CLXXXV

Tavhid tariqi adosida munojot  
Ey musallam zotingga tavidipok,  
Ahli vahdat oytib oni zavqnok.  
Har kishikim qismi tavhid aylading,  
Boisi tajridu tafrid aylading.  
Kimki o'zluqdin chiQording oni chust,  
Aylading olingda tavhidin durust.  
Kimgakim tavhiddin berding kushod,  
Midhatida kufr qilding ittihad.  
Ongakim vahdat sari yo'l aylading.  
Sen qolib nafyi buyu, ul aylading.  
Menu o'zluq shirkatin mendin itur,

Mahz tavhiding sari, yo rab, yetur.  
Menda, yo rab, qo'yima menlikdin nishon,  
Uzlukungda mahv qil domonkashon.  
CLXXXVI

Tamsil  
Bir kecha Mahmud shohi pokboz,  
Qo'ptikim bilgayki naylaydur Ayoz.  
Garchi ul uyg'og' edi yumdi ko'zin,  
Hiyla birla uyqug'a soldi o'zin.  
Taxt ayog'i sori solib takyagoh,  
Yotib erdi boshi uzra keldi shoh.  
Bir dam etti husnig'a nazzoraye,  
Shavq o'tig'a aylayin deb choraye.  
Shavqini nazzora afzun ayladi,  
Ishq ahvolin digargun ayladi.  
Chekti mahvashning ayog'ig'a o'zin, V  
Shavqdin qo'ydi tabonig'a ko'zin.  
Ko'z kafi poyig'a surtar erdi shoh,  
Ul oyog'in tortib o'lmay uzrxoh.  
Bildi shahkim nozanin uyg'og' erur,  
Dedi, eykim jonda sendin dog' erur.  
Mendin anglab muncha izhori niyoz,  
Nevchun erdi muncha beandoza noz?  
Kim ayog' tortib qo'pub o'lturmading,  
Zohir aylab mehr bir so'z so'rmading?  
Dedi gulchehr: "Ey shahi sohibnazar!  
Bormu erdi menda menlikdin asar?  
Bir kishi uzr aytqoykim bo'lg'oy ul.  
Menda ul dam yo'q edi menliqqa yo'l.  
Yo'q edi ul dam Ayozu shoh edi,  
Ham o'zi bedil ham ul dilxoh edi".  
Kimga vahdat qilsa mundoq turktoz,  
Farq bo'lmas anda sultondin Ayoz.  
Olami tavhiddin topqon xabar,  
Menliku senlikdin ul toimas asar.  
CLXXXVII

Fano tariqi adosida munojot  
Ey fano ahli seniig vosillaring,  
Vasl nuzhatgohig'a doxillaring.  
Kim baqo toimoqqa sendin mayl etib,  
Chun solib o'zni fano sori yetib.  
Uzlukii harkimki foni qilmayin,  
Ul fanoning ham fanosin bilmayin.  
Toimoq imkon yo'q visoling komini,  
Ul fanolardin baqo anjomini.  
Uyla Foniq qismi, yo rab, ber fano,  
Kim baqo kunjidin ul topqoy g'ino.  
Qil o'zungda budini avval nabud,  
Ul nabudi ichra bergil bir vujud.  
Kim anga ish ul vujud ichra tamom,  
Bo'lg'oyu topqoy visoling vassalom.  
CLXXXVIII

Tamsil  
Komile izhori hojot ayladi,  
Tengrig'a mundoq munojot ayladi:  
"Kim iloho pok zotingg'a baqo  
Uyladurkim, ko'rmas imkoni fano.  
Uylakim zotingg'a sobitdur qadam,  
Aylasang andoq vujudimni adam.  
Kim anga yo'l toimog'oy rangi vujud,  
Qolmog'oy vasl ichra juz komi shuhud".  
Istagan foni vujudumdin asar  
Topqoy ul boqi vujudingda xabar.  
Menliku senlik aromizlin ketib,  
Qolg'osen sen-o'q arocin men ketib.  
Sen men itloqi mahol o'lg'och mahol,  
Topsam ul holatda sendin men visol.  
CLXXXIX

Bu kitob nazmda o'z munosabatining taqribi  
Yodima mundoq kelur bu mojaru,  
Kim tufuliyat chog'i maktab aro,  
Kim chekar atfol marhumi zabun,  
Har tarafdin bir sabaq zabtig'a un.  
Emgonurlar chun sabaq ozoridin,  
E "Kalomulloh"ning takroridin.  
Istabon tashxisi xotir ustod,  
Nazm o'quturkim ravon bo'lsun savod.  
Nasrdin ba'zi o'qur ham doston,  
Bu "Guliston" yanglig'u ul "Bo'ston".  
Menga ul holatda tab'i bulhavas  
"Mantiqut-tayr" aylab erdi multamas.  
Topti sokii-sokin ul takrordin  
Soda ko'nglum bahra ul guftordin.  
Tab' ul so'zlarga bo'lg'och oshno.  
Qilmadi mayl o'zga so'zlarga yano.  
Odat ettim ul hikoyatlar bila,  
Qush maqolidin kinoyatlar bila.  
Chun birar so'zdin topib tab'im kushod,  
Topsam erdikim, nedur ondin murod.  
Zavq ko'p xushhol etar erdi meni,  
Sharhi oning lol etar erdi meni.  
Chun bu ahvolimg'a bo'ldi imtidod,  
Bo'ldi ul daftarg'a g'olib e'tiqod.  
Uylakim eldin uzuldi ulfatim,  
Ul kitob erdi anisi xilvatim.  
Xalq rasmi so'zlaridin qilu qol -  
Utsa tab'img'a yetar erdi malol.  
Oqibat ishq ayladi shaydo meni,  
Uyla mash'uf etti bu savdo meni,-  
Kim dedim uzlat eshigin ochqomen,  
Dahri bema'ni elidii qochqomen.  
Onglag'och atfol aylab sho'ru shayn,  
Istimo' etti bu so'zni volidayn.  
Vahmi g'olib bo'ldi andoqkim avom,  
Kim erur so'z otashinu tab' xom.  
Bo'lmag'oykim, dast bergay telbalik,  
Chekkuluk bo'lg'oy salohidin ilik.  
Yoshurub daftarni ma'dum ettilar,  
Shug'lidin ko'nglumni mahrum ettilar  
Man'i kulli qildilar ul holdin.  
"Mantiqut-tayr" uzra qilu qoldin.  
Chun aroding o'tti bir ahdi ba'id,  
Bo'ldilar ul holatimdin noumid.  
Lek chun yodimda erdi ul kalom,  
Yoshurun takror etar erdim mudom.  
Ondin o'zga so'zga maylim oz edi,  
Qush tili birla ko'ngul hamroz edi.  
Turk nazmda chu men tortib alam,  
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.  
To'rt devon birla nazmi panj ganj,  
Dast berdi chekmayin anduhu ranj.  
Nazmu nasrim kotibi taxminshunos,  
Yozsa, yuzming bayt etar erdi qiyos.  
Munchakim nazm ichra qildim ishtig'ol,  
Xotirimdin chiqmas erdi bu xayol,-  
Kim bu daftarg'a berib tavfiq haq,  
Tarjuma rasmi bila yozsam varaq.  
Lek so'z dushvor edi, men notavon,  
Bormas erdi xomag'a ilkim ravon.  
Oqibat ko'rdumki umr aylar shitob,  
Ulsamu qolsa deyilmay bu kitob.  
Ul jahon sori bu armon eltkum.  
Bo'yla o'tdin dog'i hirmon eltkum.  
Necha bu ishg'a ko'ngul mash'uf edi,  
-Go'iyokim vaqtig'a mavquf edi.  
Oltmishqa umr qo'yg'onda qadam,

Qush tilin sharh etgali yo'ndum qalam  
Shayxning ruhidin istimdod etib,  
Ko'rgach istimdod, ul imdod etib.  
Erdi yorim kecha ashg'olim chog'i,  
Tab' bu ma'niga mashg'ul o'lmog'i.  
Xoma raftorin necha sursam necha,  
Qirq-ellik bayt har yarim kecha -  
Safhaga yozmay qarorim yo'q edi,  
Bu raqamda ixtiyorim yo'q edi.  
Shayx ruhidin yetib ko'p ehtimom,  
Qildim oz fursatda arqomin tamom.  
So'z daqiq erdiyu ma'ni onda gum  
Garchi qildim o'z-o'zumga ushtulum.  
Shayx ruhidin vale yetti kushod,  
Kim murodin topti ushbu nomurod.  
Garchi g'avvose chekib ranju ano,  
Uzni bu daryog'a aylab oshno, -  
Durg'a garchi toimasa ham dastras,  
yig'sa daryo mavjidan xoshoku xas,  
Ham qurutsayu oni qilsa o'tun,  
Yorug'oy vayronasi bo'lmay tutun.  
Men bu daryo ichra durri pokni -  
Toimayin, yig'dim esa xoshokni.  
Naylayin bu erdi maqdurum mening  
Qone' o'ldi tab'i mahjurum mening.  
Sochti ersa nozimi oliy makon,  
Olam ahli uzra naqdi bahru kon.  
Mundin ortug'roq had ermastur manga,  
Judini vasf aylasam basdur manga.  
Budur umidimki, harkim solsa ko'z,  
Kim harorat solsa ko'nliga bu so'z,-  
Shayx anfosig'a oni haml etib,  
Fayz topqoy komig'a ya'ni yetib.  
Bizni dog'i onda ko'rgay bir tufayl,  
Qilmag'ay ko'nqli ikilik sori mayl.  
CXC

Tamsil

Tolibe ko'nqlida oshubi talab,  
Shahr aro borur edi tortib taab.  
Ko'rdi devoru yiqilg'on ko'y aro,  
Jam' bo'lg'on el uzotib mojaro.  
Kim bu soridin edi elga ubur,  
Emdi, yorab, qay sari tushkay murur.  
Kim imorat aylagay, oyo, muni?!  
E yosarga aylagay parvo muni?  
Muddate bog'laidi elga yo'l tamom,  
Bo'ldi ojiz yo'l o'tardin xosu om.  
El aro bu iztirobu iztiror,  
Kim yetishti tolibi ummidvor.  
Ko'rgach ul holat tushub ko'nliga jo'sh,  
Vajdu hol etti ayon aylab xuro'sh.  
El taajjub qildilarkim, bu faqir -  
Bejihat qildi ayon vajdu sarmr.  
Kayfiyat so'rdilar ul bechoradin,  
Komu maqsad dashtida ovoradin.  
Dedi: "Men bu xalqniig jam'iyatin -  
Ko'rdum, ammo bilmadim kayfiyatini.  
Lek solib bu taraf raftorni,  
Aylasam nazzora bu devorni.  
Maylini doim ko'rur erdim buyon,.  
Kim yiqilmoq aplanish holo ayon.  
Chun jamodi zohir etsa bu sifat,  
Mayl qilg'on yon yiqilmoq oqibat.  
Meiki bor erdim o'zumdin noumid,  
Mayl qilg'on komidin behad ba'id.  
Aylagach devor bu ramz oshkor,  
Bo'ldi bu navmid ham ummidvor,-  
Kim qayonkim mayl etti haq meni,



Ul taraf-o'q boshlag'ay mutlaq meni.  
Chun manga faqru fano keldi murod,  
Ul tarafdin haq nasib etti kushod.  
Mayl bergon soyi aylab baxt yor,  
Solg'ay ul jonib meni beixtiyor".

CXCI

Bu kitobda taxallus tag'yirining uzri  
Chun kichik yoshtin manga bo'ldi nasib,  
Nazm adosida xayoloti g'arib,  
She'r har sipfinki qildim ibtido,  
Turk alfozi bila topti ado.  
Uylakim har kimsa nekim qilg'usi,  
Ba'zi ishta bor oning bir belgusi.  
Kim o'zi taxsisig'a imlodur ul,  
Muhri yo tavqi' yo tamg'odur ul.  
Safha debosiyu nazm inshosidur.  
Kim taxallus nozimi tamg'osidur.  
Bu nishoni birla topti imtiyoz,  
Iye varaqkim nazm qildi ahli roz -  
Kim bu Sa'diy yo Nizomiyning durur,  
Yo bu Xisravning, bu Jomiyning durur.  
Menki turk alfoziga aylab shuru',  
Nazm topti tab'u kilkimdin vuqu'.  
Chun sahobi tab'im o'ldi durfishon,  
Nazmima erdi Navoiydin nishon.  
Dahr bog'ida bo'lub komim ravo,  
Komronlar topti nazmimdin navo.  
Forsiy nazm ichra chun surdi qalam,  
Nazmning har sinfini qildi raqam.  
Fayz yetkoch ul maoniydin mango,  
Topti belgu nazmi Fopiydin mango.  
Chun "Lisonut-tayr" og'oz ayladim,  
Turfa qushlar birla parvoz ayladim.  
Munda ansab erdikim tuzgoch navo,  
Bo'lsa nazmimg'a lavoiydin ado, -  
Kim navo qushlar tili alhonidur,  
Dilkash afg'oni hazin dostonidur.  
Turkiy uslub erdi ham bu doston,  
Topqudek erdi Navoiydin nishon.  
Bu raqamda Fopiy aylarga laqab,?,  
Mustame' bo'lg'ong'a anturmen sabab.  
Kim bu daftar nazmidin kulli murod,  
Chunki marja' mayli erdiy maod.  
Munda Foniy bo'lmay ish o'lmas tamom,  
Foniy ondin topti nazmim ixtitom.  
Ham bu daftar ichra Shayxi ma'iaiy,  
Kim demish qushlar tilidin masnaviy.  
Sayr ul qushlarg'akim fan aylamish,  
Etti vodiy chun muayyan aylamish,  
Chekturub qushlarga- ko'p ranju ano,  
So'ngg'i mapzil bo'ldi vodiyi Fano.  
Garchi bu ikki tanosib yor edi,  
Nazmima ham bu taxallus bor edi.  
Gar taxallus munda Foniy ayladim,  
Bu. tanosiblardin oni ayladim.  
Gar sabab istab birov qilsa xitob,  
Sharh qilgon so'z anga basdur javob.  
Kimga bo'lsa mundoq ishlar niyati,  
Bo'lmas ul bo'lmay zamon amniyati.  
Bu zamon amniyatini qilma gumon,  
Sobit o'lmay adli Doroyi zamon.

CXCII

Podshohi islom duosi va uzrxohlik adosi  
Ulki amniyat vujudidindurur,  
Xalq Shokir bazlu judidindurur.  
Abbadat ehsonahu Sulton Husayn,  
Shoh Abulg'ozi molo-zulxofaqayn.  
Men ne oyta olg'omen avsofini,

This is not registered version of TotalDocConverter

Xulqida namoqda bo'lgan,  
Kym agar yuz ming meningdek nazmkesh,  
Qilsa ming yil safha ruxsorini resh, -  
Vasfining mingdin biri oytilmog'oy,  
Balki yuz mingdin biri yozilmog'oy.  
Bas qilib hamdu duosip ibtido,  
Aylayin qushlar tili birla ado.  
Toki davron bog'ida davlat qushi,  
Kim saodat bo'lg'oy ul qushning tushi.  
Saltanat avjida sayr aylab ayon,  
Aylagay bir chatr boshin oshyon.  
Bo'lsun oniyag chatru izzu davlati  
Boshi uzra soyaboni hashmati.  
Adli bo'stopida yuz xayli tuyur  
Ko'rmasunlar zulm toshidin futur.  
Hukmi nofiz to abad davron aro,  
Inqiyodi amri insu jon aro.  
Davlatining dushmani xaylu mute',  
Barcha afvu xalqini aylab shafe'.

CXCIII

Bu nazm tarixi guftori va o'zining iste'fo va istig'fori  
Menki, xilvat ichra yo'ndum xomani,  
Naqsh aylarga bu dilkash nomani.  
Anbiyo sarxayli Batho soridin,  
Aylagan Yasribqa mayl izhoridin.  
Iil to'qqiz yuz o'tmish erdi dog'i to'rt,  
Kim ulusning ko'ngliga soldi bu o'rt.  
Ham bu tarix ichrakim qildim shuruCHB,  
Ixtitomig'a dog'i bo'ldi vuqu'.  
Bir-iki oy o'ylakim dedim durust,  
Yuqoriroq sharhini qildim naxust.  
Kechakim har shug'ldin ma'zul edim.  
Bir-iki soat munga mashg'ul edim.  
Chun bu yanglig' ehtimom ettim tamom,  
Ibtidosiga yetishti ixtitom.  
Yo rab, ushbu turfa sho'xi dilfirib,  
Kim oning vaslin manga qilding nasib, -  
El ko'ziga dog'i mahbub aylagil,  
Barcha xotirlarg'a marg'ub aylagil.  
Garchi maqsudig'a mubhamdur bayon,  
Qush tilin el ko'ngliga qilg'il ayon.  
Kimga ondii hosil o'lsa muddao,  
Lutf etib Foniyni ham qilsa duo.  
Ayla oning ham duosin mustajob,  
Ikkimizni ollidin olg'il hijob.  
Tab'ima tushsa xato birla zilal,  
Kilkima sahv o'ldi ersa yo xalal.  
Lutf ila, yo rabki, borin afv qil,  
Nomai a'molidin ham mahv qil.  
Har parishon so'zki yozdim, yo karim,  
Barchadin astag'firillo, al-azim.

AvvalgiIII- qismB Keyingi